

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi” kafedrasini**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ta'lif yo'naliishi 5141500 – “Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va  
ma'naviyat asoslari”**

**Mavzu: Ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni  
joylashtirish tartibi**

Bajardi:

Tarix fakulteti 4-kurs talabasi  
**F.Toyirov**

Ilmiy rahbar:

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'lifi” kafedrasini katta o'qituvchisi  
**U.M.O'tamurodov**

**Navoiy -2013**

## **Mavzu: Ota-onan qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni joylashtirish tartibi**

Reja

### **Kirish**

I bob. Ota-onan qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish.

- 1.1. Oila mustahkamligini ta’minlashning ijtimoiy va ma’naviy omillari.
- 1.2. Ota-onan qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish.
- 1.3. Ota-onan qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni aniqlash, hisobga olish va joylashtirish.

II bob. Ota-onan qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni joylashtirish shakllari.

- 2.1. Farzandlikka olish tushunchasi, shartlari va tartibi.
- 2.2. Voyaga yyetmagan bolalar uchun vasiy va homiy tayinlash.
- 2.3. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) tushunchasi va tartibi

### **Xulosa**

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

## Kirish

**Mavzuning dolzarbliji.** Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz<sup>1</sup>

Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish tartibi va shakllarini o'rganish hamda bu borada amaldagi qonun hujjatlarini o'rganish, bu kabi holatlarning kelib chiqish sabablsrini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqi azaldan bolajon xalq sifatida tan olingan bo'lib, ikkinchi jahon urushi davrida ham urushdan aziyat chekkan sobiq ittifoqdosh davlatlardan kelgan yetim bolalarning boshini silaganligi, farzandlikka olganliklari va o'z farzandlariday tarbiyalaganligi tarixdan ma'lum. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994-yildan boshlab, har yili 15 may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qildi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining XIV bobi oila deb nomlanib, unda to'rtta modda ota-onas va farzandlar hamda oila a'zolarining o'zaro huquq va majburiyatlariga bag'ishlanganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida - “Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo`lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag`batlantiradi”<sup>2</sup> – deb belgilab qo'yilgan.

Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquqi alohida himoya qilinishi va ularga davlat tomonidan yordam berilishi lozimligi haqida “Bola

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганинг ўн етти йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. /Халқ сўзи, 2009 йил 6 декабрь.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Т.: O'zbekiston, 2012. 12 b.

huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyaning 20 – moddasi 1-bandida<sup>3</sup> ham ko’rsatib o’tilgan. Ushbu hujjatlardan kelib chiqib, ushbu mavzuni malakaviy ish mavzusi qilib olishga munosib deb hisoblayman. “O’zbekiston diyorida yashayotgan millionlab oilalar badavlat bo’lmasdan turib davlatimiz boy bo’laolmaydi. Bunday siyosat jamiyatimizning yetakchi siyosati bo’lib qoladi”<sup>4</sup>. Hurmatli yurtboshimizning “O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarida oila masalasiga, jumladan, oila faravonligini oshirish va oilalarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar, “Mehribonlik uylari”ni budgetdan moliyalashtirish ularda oilaviy tarbiya sharoitlari bilan teng keladigan moddiy-maishiy sharoitlarni yaratish uchun yetarli darajada bo’lishi lozimligini O’zbekiston Xalq demokratik partiyasi o’z dasturi<sup>5</sup>ga kiritgan. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar e’tiborga sazovordir. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab har bir yilning dolzarb yo’nalishlari, mazkur yilda alohida e’tibor qaratilishi lozim bo’lgan muammo va vazifalardan kelib chiqqan holda nomlanib kelmoqda. Jumladan, 2000-yil – Sog’lom avlod yili, 2001-yil – Onalar va bolalar yili, 2008-yil – Yoshlar yili, 2010-yil – Barkamol avlod yili, 2012-yil – mustahkam oila yili, 2013-yil – obod turmush yili deb nomlandi. Bu yillarning nomlanishi bir-biriga hamohang, mazmun mohiyati jihatidan bir-biri bilan uzviy bog’langanligini e’tirof etish lozim. Eng muhimi, barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarimizga nafaqat bilim berish, balki ularni ijtimoiy hayotning turli jabhalariga – madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sport, fan va boshqalarga qiziqtirish muhim hisoblanadi. Yosh avlodni munosib hayot kechirishlari, ta’lim tarbiya oishlarini kafolatlovchi huquqiy asoslarni takomillashtirish bugungi kunda oldimizda turgan muhim vazifa sanaladi.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi.** Ota-oni qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni joylashtirish tartibi, farzandlikka olish instituti vasiylik va homiylik, patronat O’zbekiston hududida amal qilgan huquq tizimlarida ma’lum darajada o’z ifodasini topganligini qayd etish lozim. Jumladan, farzandlikka olish

<sup>3</sup> O’zbekiston Respublikasining oila kodeksiga sharhlar. – T.: Adolat. 2000. 281 b.

<sup>4</sup> O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O’zbekiston. 2011. 419 b.

<sup>5</sup> O’zbekiston xalq demokratik partiyasi dasturi. O’zXDPning veb-sayti – [www.xdp.uz](http://www.xdp.uz).

bo'yicha munosabatlar islom huquqi normalarida o'z davrida fiqh mutaxassislari tomonidan chuqur tahlil etilgan. Jumladan, Burxoniddin Al-Marg'inoniyining "Hidoya", "Muxtasar" asarlari va boshqa qator tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, A.X.Saidov, A.R.Raxmanov, S.A.Isxokov va boshqalar tomonidan o'rganilgan<sup>6</sup>. O'zbekiston Respublikasida stivilist olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, jumladan, F.M.Otaxo'jaev, M.Vosiqova, G.Inomjanova, A.Yu.Azizova, Sh.R.Yuldasheva, N.A.Ashurova, Z.Esonovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda farzandlikka olish bilan bog'liq ayrim jihatlar yoritilgan<sup>7</sup>.

**Tadqiqot maqsadi.** Mazkur tadqiqotning maqsadi Ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish tartibi, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, patronatga oid huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish tizimini tadqiq etish, bu borada hozirgi kunda mamlakatimizda mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan sud-huquq tizimini va qonunchilikni takomillashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilash sohasidagi takliflarni ishlab chiqish, tavsiya va xulosalar berish hamda ularni hayotga tatbiq etish yo'llarini asoslantirilgan holda ko'rsatib berishdan iborat.

### **Tadqiqot vazifalari:**

- Ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish tartibi, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, patronat bilan bog'liq tushunchalarga ilmiy-nazariy ta'rif berish va bunday tushunchalar o'rtasidagi farqni aniqlab olish;
- farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, patronat huquqiy asoslarini tarixiy rivojlanish bosqichlarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

---

<sup>6</sup> Бурхониддин Ал-Марғиноний. Ҳидоя. З-жилд. -Т.: Адолат, 2001; Мухтасар: (Шариат қонунларига кисқача шарҳ). Нашрға тайёрловчилар: Р.Зоҳид, А.Деҳқон. -Т.: Чўлпон, 1994; Сайдов А.Х. Основы мусульманского права. -Т.: Академия МВД, 1994; Рахманов А.Р., Рахманов А. Исламское право. Учебник для вузов. -Т.: Янги аср авлоди, 2003; Исҳоков С.А. Ислом фуқаролик ҳуқуки асослари. -Т.: ИИВ Академияси, 2005.

<sup>7</sup> Отахўжаев Ф. Ўзбекистон Республикасининг Оила ҳуқуки. Дарслик. Т.:2005; М.Восикова ва бошқалар. Ўзбекистон ССР Никоҳ ва оила кодексига шарҳлар. -Т.: Ўзбекистон, 1975; Иномжонона Г. Отаоналар ва болаларнинг оила ҳуқукий ҳимоя қилиш муаммолари. -Т.: Адолат, 2006. Азизова А.Ю. Усыновление по советскому семейному праву. –Ташкент.: 1990.; Юлдашева Ш. Фуқаролик ва оила ҳуқуқида васийлик ва хомийликнинг моҳияти ва уни амалга ошириш усуллари. Автореф. дисс...ю.ф.н. -Т.: 2005.; Ашуррова Н.А. Вояга етмаганларнинг фуқаролик-ҳуқуқий муносабатлардаги иштироқи. Ю.ф.н.дисс. – Т.: 2008.; Эсанова З.Н. Оталикни белгилаш тўғрисидаги ишларни судда кўришнинг процессал хусусиятлари. Ю.ф.н.дисс. –Т.: 2005. -28 б.; Эсанова З.Н. Болалар тарбияси билан боғлик низоларни фуқаролик судида кўришнинг процессал хусусиятлари. Ю.ф.д.дисс. –Т.: 2010. -46 б.

- vasiy va homiy, farzandlikka oluvchi shaxslarga qo'yiladigan talablarni huquqiy jihatdan tahlil qilish;
- vasiylik va homiylik, patronat, farzandlikka olishni rasmiylashtirishning huquqiy tavsifini berish;
- vasiylik va homiylik, patronat, farzandlikka olishning huquqiy oqibatlarini ochib berish;
- farzandlikka oluvchining farzandlikka olinganlarga nisbatan huquq va majburiyatları tizimini tahlil qilish;
- vasiylikka va homiylikka, olinganlarga nisbatan huquq va majburiyatları tizimini tahlil qilish;
- vasiylikka va homiylikka, farzandlikka olingan bolalar huquq maqomi tavsifini berish;
- vasiylikka va homiylikka, farzandlikka olishni bekor bo'lish asoslari, tartibi va huquqiy oqibatlari tavsifini berish;
- vasiylikka va homiylikka, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishning huquqiy oqibatlarini tahlil qilish;
- oilaviy-huquqiy munosabatlarda vasiylikka va homiylikka, farzandlikka olish huquqiy institutini takomillashtirish va ijobjiy samaraga erishishni ta'minlovchi ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot ob'ekti va predmeti.** Tadqiqotning ob'ekti bo'lib vasiylikka va homiylikka, farzandlikka olish bilan bog'liq oilaviy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Tadqiqot predmetini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar bilan bog'liq ravishda oila huquqi doktrinasida vasiylikka va homiylikka, farzandlikka olish bilan bog'liq nazariy asoslarning shakllanishi va vasiylikka va homiylikka, farzandlikka olish bilan bog'liq ilmiy muammolar tizimi tashkil etadi.

**Metodologiya va metodlar.** Bitiruv malakaviy ishida ilmiy bilişning kuzatish, analiz va sintez, umumlashtirish, uzviylik va mantiqiylik, tizimli yondashuv konsteptuallik, muammoviy-maqsadli, qiyosiy huquqiy, tarixiylik,

mantiqiylik, statistik, amaldagi qonun hujjatlari va ularni qo'llashni ilmiy tahlil etish kabi metodlariga tayanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Bitiruv malakaviy ishida farzandlikka olish, vasiylik va homiylik tushunchasi, vasiylikka va homiylikka, farzandlikka olish huquqiy asoslarining tarixiy rivojlanish bosqichlari, farzandlikka oluvchi shaxslarga qo'yiladigan talablar, vasiylikka va homiylikka, farzandlikka olishni rasmiylashtirish tartibi, huquqiy oqibatlari, farzandlikka oluvchining farzandlikka olingenlarga nisbatan huquq va majburiyatlar, farzandlikka olingen bolalarning huquqiy holati, vasiylikka va homiylikka, farzandlikka oluvchilarning o'z majburiyatlarining lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik shakllari, farzandlikka olishni bekor bo'lish asoslari, tartibi va huquqiy oqibatlari, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishning huquqiy oqibatlari O'zbekiston Respublikasining oila qonunchiligi asosida ilmiy-nazariy va amaliy tahlil etilib, "Oila huquqi" fani nazariyasini boyitishga xizmat qiladigan qator ilmiy takliflar, konstepstiylar himoya uchun ilgari surildi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi huquqiy madaniyat va uning tarixiy shakllari hamda shakllanishining ijtimoiy, ta'limiylar va metodik asoslarini tahlil qilinishi, olib berilishi demokratik jamiyat uchun muhim bo'lgan bu fazilatni o'quvchilarda shakllantirish hamda rivojlantirishning ilmiy asoslarini yaxshiroq bilib olishga yordamlashadi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy xulosalaridan "Oila huquqi", "Huquqshunoslik", fanlaridan uzviy bog'liq bo'lgan mavzularni olib berishda foydalanish maqsadga muvofiq.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, har bob uchtadan paragrifdan, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Bitiruv malakaviy ishining umumiyligi hajmi 57 betdan iborat. Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mavzu yuzasidan fikr-mulohazalarimizni bayon qilamiz. Bitiruv malakaviy ishi yakunida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini ko'rsatib o'tamiz.

## **I bob. Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish.**

### **1.1. Oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy va ma'naviy omillari**

Oila – jamiyatning muhim tayanchi. Oila davlat va jamiyat himoyasida. Ota-onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish davlat tomonidan amalgalashiriladi<sup>8</sup>. Oila va nikoh masalalarini o'rganish bir tomonidan oson, jo'nga o'xshasa, ikkinchi tomonidan, o'ta murakkab va nozikdir. Bu holat oila psixologiyasi bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlarning o'ziga xos metodologik jihatlarini ajratishni taqozo etadi. Avvalo, bu o'rinda oila va nikoh tushunchalarining o'ziga ilmiy ta'rif berish lozim. Eski falsafiy lug'atlarda "Oila – bu jamiyatning yacheykasi (kichik ijtimoiy guruh), er-xotinlik hamda ota-onalik munosabatlarini tiklash orqali shaxsiy turmush tarzini tashkil etishning muayyan ko'rinishi, ya'ni, bir erda umumiy ho'jalik yuritadigan er va xotin, ota-onalar va farzandlar, aka-ukalar va opa-singillar hamda boshqa qarindoshlarning birgalikda yashashini ifodalovchi muhim bo'g'in"<sup>9</sup> deb ta'rif berilgan. Bu kabi ta'riflardan oilaning 4 ta muhim tavsifi kelib chiqadi:

- Oila – jamiyatning bo'g'ini (kichik ijtimoiy guruh);
- Oila – shaxsiy yashash tarzini tashkil etish shakli;
- Oila – er-xotinlarning birlashuvi;
- Oila – er-xotinlarning boshqa yaqin qarindosh: ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari, momolar va bobolar, farzandlar va ularning farzandlari bilan ko'pqirrali munosabatlar o'rnatish imkoniyati.

Tadqiqotlarda eng muhim metodologik tamoyil shundan iborat bo'ladiki, oilani o'rganayotgan shaxs uni oddiy oila a'zolari yig'indisi sifatida emas, balki barcha oila a'zolari o'rtasida murakkab va serqirra munosabatlar tizimi mavjudligini, ular har bir a'zoning berajak javoblarida aks etishini unutmaslik

---

<sup>8</sup> O'zbekiston respublikasi oila kodeksiga sharhlar. – T.: Adolat. 2000. 208 b.

<sup>9</sup> Философский словарь / Под ред. И.Т. Фролова.-М., 1980 – С. 326

kerak. Ya’ni, oila va undagi munosabatlar hamisha tashqi psixologik ta’siri komida bo’ladi. Unga kichik ijtimoiy guruh sifatida qarash esa, kichik guruhga xos bo’lgan deyarli barcha ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarning borligi va ular har bir oila a’zosining maqomini belgilashini inobatga olishni taqozo etadi. Aslida umuman jamiyat miqyosida olib qaralganda, oila, ayrim olimlar (G.M.Andreeva, A.I.Zaxarov, V.S.Toroxtiy, N.Ya.Soloveva va boshqalar) ning haqli e’tirof etishlari bo’yicha, bu – birlamchi guruhdir.<sup>10</sup> Ya’ni, birlamchi guruhga xos bo’lgan emostionallilik, munosabatlarda rasmiylik va norasmiylikning uyg’unlashuvi, ijtimoiy-psixologik muhitning insoniy munosabatlarga bog’liqligi va h-zolar oilaviy munosabatlarga ham xosdir.

Shu bois ham oila yo’nalishida o’tkaziladigan tadqiqotlarda uning ijtimoiy guruh sifatida o’zigagina xos bo’lgan sifatlari, xususiyatlari borligini unutmaslik lozim. Bular quyidagilar:

- bir emas, bir necha umumiy maqsadlarning bo’lishi; ya’ni, agar mehnat jamoasida a’zolarni birlashtiruvchi yagona maqsad tan olinsa, oilada bunday maqsadlar bir nechta ham bo’lishi mumkin va ular oilaviy hayot mobaynida o’zgarib ham turadi. Masalan, yaxshi niyat bilan birgalikda yashash maqsadiga keyinchalik sog’lom farzand ko’rish, o’g’il bola bo’lsa, sunnat to’yi qilish, farzandni maktab ta’limiga tayyorlash, to’y qilish, uylantirish kabi qator yirik maqsadlar va orzu-havaslar paydo bo’laveradi, oilaviy hayotning mazmuni va uning jozibasi ham ana shu kabi maqsadlar va ularni amalga oshirishda er-xotin inoqligi, hamfikrliги bilan belgilanadi;
- oila a’zolari manfaatlari, qiziqishlari va intilishlari muayyan tafovutlar va kelishmovchiliklarning tabiiy holat ekanligi; ayniqsa, bu oilada katta avlod vakillari ustanovkalari bilan ularning farzandlari o’rtasidagi ziddiyatlarda ham ifoda etadi (avlodlararo ziddiyat), ko’p holatlarda bu kabi tafovut yoki ziddiyatlar konstruktiv xarakter ham kasb etadi;
- alohida yashaydigan oilada er-xotin munosabatlarining boshqa munosabatlarga sezilarli ta’siri, masalan, farzandlarning tarbiyalanganlik

---

<sup>10</sup> Торохтий В.С. Осноциально-психологического обеспечения социальной работы с семьей.-М., 2000

darajasiga;

- oilaviy murosa yoki hamjihatlikka boshqa qarindoshlar, masalan, keksalarning ta'siri;
- oila a'zolari o'rtasida hamkorlik faoliyati va uning samrasi unchalik sezilmasligi, masalan, oilada arning o'z o'rni va mashg'ulotlari, ayolning o'z o'rni va vazifalarining bo'lishi va har doim ham birga bir ishni qo'shilib ketmaslik. Oilaviy xasharlar yoki boshqa tadbirlar bundan iste'sno;
- muomala va o'zaro hurmat normalarining katta ahamiyatga ega ekanligi, hamisha bir-birining ko'ngliga qarashning oila mutahkamligi omili ekanligi;
- oilada o'zaro sir, yashirin, xufyona ishlarning oialviy munosabatlarga salbiy ta'siri.

Yuqorida ta'kidlangan holatlar oila tadqiqotlarini o'tkazuvchilarni sofiijitimoiy guruhlarda o'tkaziladigan izlanishlarga qo'llaniladigan tamoyillardan biroz chekinishlarini talab qiladi. Ya'ni, oila o'ziga xos insoniy munosabatlar mujassam bo'lган noyob maskandir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi va oila qonunchiligiga muvofiq voyaga yetmagan bolalar bir qator mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lib, ushbu huquqlar qonun asosida himoya qilinadi va kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasining 65-moddasida «farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi», deb belgilab qo'yilgan. Davlat va jamiyat yetim hamda ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lган bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan hayriya faoliyatini rag'batlantiradi. Albatta, Asosiy qomusimizda ushbu normalarning mavjudligi boshqa qonun va qonun osti hujjatlarini hayotga tatbiq etishda dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Barchamizga ma'lumki, har bir inson go'dak sifatida dunyoga keladi, oila muhitida tarbiyalanadi va voyaga yetadi. Oila – bu yashash muhiti, murakkab o'zaro munosabatlar majmui, inson shakllanuvchi makon. Bola oilada o'zini

muhofazalangan va baxtiyor sezadi. Biroq, ba'zida turli xil sabablarga ko'ra bolalar ota-onas qaramog'idan mahrum bo'ladilar va ularni yana qaytadan tabiiy oila muhitiga qaytarishning huquqiy shakli bu farzandlikka olishdir.

Farzandlikka olish instituti tarixan mavjud bo'lgan institut hisoblanadi. Qonunchilikda o'zining huquqiy asoslariga ega, biroq bugungi kunda ushbu institutning oila huquqida bo'lgan o'rniga yangicha konstepstiya zarur. O'zbek xalqi o'zining boy tarixiga va qadriyatlariga ega. Oila qonunchiligidagi farzandlikka olishga oid normalarda o'zgarishlar ro'y berdi. Farzandlikka oluvchilarga nisbatan muayyan talablar belgilangan. Ularning moddiy-maishiy sharoitlari, axloqiy-ma'naviy qarashlarini inobatga olish zaruriyati tug'ildi. Farzandlikka olingan bolalarning hayotini zimdan kuzatib borish mexanizmi monitoringi joriy etilmoqda. Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va milliy mentalitetimizga mos holda umumlashtirishga zaruriyat mavjud.

Voyaga yetmagan bolalar ota-onas qaramog'idan sub'ektiv va ob'ektiv sabablarga ko'ra mahrum bo'lishlari mumkin. Sub'ektiv sabablarga ota-onaning o'z majburiyatlarini bajarmasligi, jumladan o'z farzandlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib bermasligi, ota-onalik huquqidani mahrum etilishi kabi holatlarni ko'rsatish mumkin. Ob'ektiv sabablarga esa, ota-onaning o'limi, ularning og'ir kasallikka chalinishi, turli xil baxtsiz hodisalar, muomala layoqatini yo'qotishi, favqulodda vaziyatlarda (tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar jarayonida) bolani yo'qotib qo'yishi va h.k.larni ko'rsatib o'tish mumkin. Yuqoridagilar shundan dalolat beradiki, bolalarning ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lishlari muammosi jiddiy va uning oqibatlari haligacha to'liq anglab yetilgani yo'q. Shu sababli mazkur sohada huquqiy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda Respublikamizda 93 ta Mehribonlik uylari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Birgina Toshkent shahrida joylashgan mazkur turdag'i muassasalarda 3300 dan ortiq voyaga yetmagan bolalar tarbiyalanmoqdalar<sup>11</sup>. Respublikamiz viloyatlarida

---

<sup>11</sup> Xalq sўзи /2004 йил 3 июн.

xususan, Farg'ona viloyati bo'yicha 2008-yil davomida 466 nafar ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lган voyaga yetmagan bolalar aniqlangan. Shundan 137 nafari farzandlikka, 69 nafari vasiylikka, 40 nafari homiylikka olingan, 16 nafari esa, oila tarbiyasiga (patronat)ga berilgan, qolganlari bolalar muassasalariga joylashtirilgan. 2009-yil davomida ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lган voyaga yetmagan bolalar 224 nafari farzandlikka, 196 nafari vasiylikka, 88 nafari homiylikka olingan, 1 nafari esa, oila tarbiyasiga (patronat)ga berilgan<sup>12</sup>.

Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka olish ota-onasi bo'lмаган yoki turli sabablarga ko'ra ular tarbiyasidan mahrum bo'lib qolgan bolalarga oilaviy tarbiyani ta'minlash, bolalar huquq va manfaatlarini qo'riqlash, ularni jismonan va ma'nан barkamol inson sifatida kamol topishiga imkon yaratadi. Farzandlikka oluvchilar ota-onalik majburiyatini beg'araz bajaradilar hamda ularni ruhiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlaydilar. O'zaro insoniy muomala muhitida yashash har qanday shaxsning tabiiy ehtiyoji sanaladi va uni to'la-to'kis amalga oshirishda oila muhiti zarur bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olganda farzandlikka olishda bolalarning huquqiy maqomi va bunda ular manfaatlarini himoya qilishning huquqiy masalalari dolzARB ahamiyat kasb etadi.

Hozirda mamlakatimizda bolalar huquqlarini himoyalash tizimini yaratish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, muayyan darajada qonunchilik tizimi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining Oil a kodeksida farzandlikka olish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsada, farzandlikka olish bilan bog'liq qator amaliy muammolar bartaraf etilmagan. Farzandlikka olishning bir qator masalalarida bahsli vaziyatlar va noaniqliklar mavjud. Jumladan, farzandlikka olishda navbat kutishlar, mansabdor shaxslarning turli suiiste'molliklar qilishi, farzandlikka oluvchilarga qo'yiladigan ko'plab talablarni ko'rsatish mumkin.

Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lган bolalar huquq va manfaatlarini ta'minlashdagi kamchiliklar, oila qonunchiligida va u bilan bog'liq huquqiy normalarda farzandlikka olish institutining etarli darajada ishlanmaganligi, mazkur

---

<sup>12</sup> Фаргона вилоят ҳокимлиги Халқ таълими бошқармаси томонидан васийлик ва ҳомийлик юзасидан 2008 ва 2009 йил давомида амалга оширилган ишлар юзасидан хисобот. Фаргона. 2009 йил.

tadqiqot predmetiga nisbatan nazariy qarashlarning yagona emasligi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi va farzandlikka olish yuzasidan vujudga keladigan munosabatlarni chuqur ilmiy tahlil etish orqali huquqiy tartibga solish samaradorligini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Nikoh esa er-xotin va boshqa yaqin qarindoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladigan ijtimoiy institut bo'lib, O'zbekistonda nikoh munosabatlari 1998-yilda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan "Oila Kodeksi" bilan reglamentastiya qilinadi. Bevosita nikoh borasida tadqiqot olib boruvchilar va ushbu sohada o'zgarishlar qilishni niyat qilganlar. Avvalo, ushbu qonun hujjatini yaxshi bilishlari va uning milliy qonunchiligidan normalari doirasida amal qilinishini tahlil eta olishi zarur. Qonuniy nikoh FXDYo bo'limlariorqali rasman qayd qilingan taqdirdagina er va xotin va ularning farzandlari o'rtasida serqirra o'zaro munosabatlar tartibga solingan, xotinning va u tuqqan farzandning barcha huquqlari, jumladan, mol-mulk va moddiy ne'matlarga nisbatan munosabatlarlari qonuniylashtirilgan hisoblanadi. Ayna shu ma'noda oila a'zolarining hayotiy maqomlari va munosabatlarini quyidagi sxemada tasavvur etish va tahlil etish mumkin:

- Ichki nazorat – tashqi nazorat;
- Egoizm – sostiostentrizm (xudbin yoki sahovatlilik);
- Ijtimoiy normalarga bo'ysunuvchan – faqat o'zini o'ylaydigan;
- Ziddiyat va qarama qarshiliklarga nisbatan murosasozlik – ularni rad etish;
- O'ziga ishonch – ishonchning yo'qligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oila-nikoh munosabatlarini o'rganganda ushbu tamoyillarni nazariy-metodologik asos sifatida qabul qilish mumkin.

Ijtimoiyashuv yoki sostializastiya tushunchasi sof ijtimoiy-psixologik va sostiologik kategoriya bo'lib, bu shaxsning uni o'rabi turgan tashqi ijtimoiy muhit ta'sirlariga berilishi, uning norma va qoidalarini o'zlashtirishga moyilli, o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiyl

ma’nosida insonning tug’ilib, o’zini bevosita o’rab turgan tashqi muhit ta’sirida ulg’ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi. Oila muhiti har bir shaxs uchun ana shunday birlamchi, dastlabki ijtimoiylashuv o’chog’i, maskani hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning ikkilamchi maskanlari ham mavjudki, unga Mehribonlik uylari, maxsus internatlar hamda harbiy bilim yurtlari kiradi. Chunki u erda nisbatan uzoq vaqt mobaynida bola tarbiyalandi, o’sha arning normalari, qadriyatlari va talablari ta’sirida dunyoqarashi shakllanadi, shaxs bo’lib etiladi. Agar dastlabki yoki ikkilamchi sostializastiyyadan chekinish, undan mahrum bo’lish yoki xulqning tashqi salbiy ta’sirotlar natijasida deviant shaklga kelishi qayd etilsa, unda ilmiy tilda aytganda, resostializastiya deb nomlangan jarayon nazarda tutiladi.

Oilaviy ijtimoiylashuvning qadri va ahamiyati shundaki, uning ta’sirida birinchidan, shaxs katta, mustaqil hayotga, jumladan, oilaviy hayotga tayyorlanadi, o’ziga yarasha sifat va fazilatlarni shakllantirib boradi, ikkichnchidan, har tomonlama etuk, barkamol, aqli, soh va salomat shaxs bo’lib etishish imkoniyatiga ega bo’ladi. Ya’ni, oila va uning sog’lom ma’naviy muhiti bolani jamiyatda yashashga, o’ziga o’xshash shaxslar bilan murosa qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, kasb-hunarli bo’lish, muomalada ahloq-odob normalariga bo’ysunishga o’rgatadi, psixologik jihatdan tayyorlaydi.

Rus sostiolog olimi A.Antonovning ta’kidlashicha, oila ijtimoiy-psixologik yaxlitlik sifatida shaxsga shunday normativ va axborot ta’sirlarini ko’rsatadiki, oqibatda bola eng avvalo, jamiyatdagi qonuniy normalar, xulq andozalarini egallaydi.<sup>13</sup> Oila qanchalik inoq, uyushgan va mustahkam bo’lsa, uning normativ ta’siri ham shunchalik samarali bo’ladi. Bunday oilada o’zining qadriyatlardan tashqari, jamiyatning qadriyatlari, qonun-qoidalar va normalar hurmat qilinadi, bola boshidan jamiyatda yashashga o’rgatilgan bo’ladi. Uning ahamiyati shundaki, farzand maktabgacha tarbiya muassasasida ham, keyinchalik maktab, kollej yoki listeyda o’qiganda ham tartibli, intizomli, aytilgan vazifa, berilgan topshiriqlarni mas’uliyat bilan vijdonan bajdaradigan bo’lib, bolalar jamiyatida hamisha o’zining

---

<sup>13</sup> Социология семьи: Учебник / Под ред. проф. А.И. Антонова.- М.: ИНФРА-М, 2005 – С. 220

o'rniga ega bo'la oladi. Bunday farzanjdga turli bid'atlar, bemaza chaqiriqlar, da'vatlar ta'sir etmaydi, mustqil fikrli, pok vijdonli inson bo'lib etishadi. Chunki, oila bu kichik jamiyat, jamiyatning kichiklashgan andozasi, oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham mustahkam bo'lishini o'zbek xalqi juda yaxshi biladi, shuning uchun ham ayniqsa, mustaqillik yillarida oila bizning Vatanimizda qadrlanadi, nikoh muqaddas rishta sifatida e'zozlanadi.

### Er-xotin munosabatla-rini muvofiqlashtirishga oid qonuniyatlar

Ya.Gozman, K.Xorni va boshqalarning yozishlaricha, faqat emostional hissiyotlarga tayangan er va xotin munosabatlari tobora vaqt o'tishi bilan oqilona hamkorlik va do'stlik, qon-qarindoshlik munosabatlariga aylanib boradi. Yu.Dubrovinning (2004) ta'kidlashicha, "Ko'pchilik nikohlarni baxtli ham baxtsiz ham deb atash mushkul, chunki ularda er-xotinlarning bir-birlarini sekin-asta tarbiyalab borishlari va taqdir taqozosi bilan bora-bora munosabatlar chuqurlashib, tushunish hissi va do'stona munosabatlar sayqal topib, u hattoki, romantik muhabbat darajasiga ko'tariladi".

Nikoh modeli. Oila va nikoh bo'yicha ko'plab mutaxassislar Z.Freyd va A.Adlerning g'oyalarini ma'qullagan holda shuni ta'kidlaydilarki, oila qurayotgan yosh kelin-kuyovlar o'zлari anglamagan ravishda o'zлari tarbiya topgan oilalarining modelini yangi oilaga tadbiq eta boshlaydilar.

Ota-onasi Z.Freydning psixoanalitik nazariyasi mos keladi. Unga muvofiq, bola o'zi katta bo'lgan oilasidagi o'z jinsiga mos ota yoki ona obraziga o'zini identifikasiya qilib, hayoti mobaynida ko'rigan-kechirganlarini xatti-harakatlarida takrorlaydi, qarama-qarshi jins vakili bo'l mish ota-onaning obrazi esa turmush o'rtog'ini tanlashni belgilaydi. Agar ushbu obraz ijobiy bo'lgan bo'lsa, masalan, qiz bola uchun otasi ideal, namunali tuyulsa, kelajakda shu qiz o'z turmush o'rtog'i bilan kelishib yashashga moyil bo'ladi. Mobodo obraz salbiy bo'lsa (ota ichuvchi yoki bevafolik qilib tashlab ketgan), unga o'xshamagan insonni qidiradiyu, aslida topgan taqdirda ham u bilan kelishib yashashiga o'zi ham ishonmaydi, ruhiy iztirobda bo'ladi, ko'p ikkilanadi. Agar o'zi o'sib ulg'aygan oila kichik bo'lsa, istiqbolda u ham aynan detostentrik, kichik oila

qurishga intiladi.

Opa-singil, aka-inilik munosabatlariga asoslangan oila modeli A.Adler g'oyalari ta'sirida ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, er-xotin aloqalari mustahkam va barqaror bo'lisi uchun ikkasi o'z munosabatlari jarayonida akalari yoki opa-singillari bilan bo'ladigan hamkorlik, liderlik, hukmronlik, mas'uliyat, g'amxo'rlik, tobeklik kabi qator munosabatlarini ro'yobga chiqarishlari lozim (sibling yondashuv). Bu aloqalarning bir ko'rinishi shundayki, unda er va xotin bir-biriga akaday, singiday u yoki bu munosabatlardagi kemtikliklarni to'ldirib borishlari mumkin (komplementar nikoh). Bu bizdagi munosabatlarga ham xos bo'lib, ko'pgina o'zbek oilalarida xotin erini "aka" deb atasa, er birinchi farzand tug'ilgach, xotiniga to'ng'ich farzandning ismini aytib murojaat qiladi. Bu holat ayniqsa, er o'z oilasida singillarining akasi bo'lgan bo'lsa, yoki xotin ham o'z navbatida ota-onasining uyida akalarning singlisi bo'lgan bo'lsa komplementar tarzda uyg'unlik kashf etadi, ular oilaviy munosabatlarda kim ustun, kim tobe kabi muammolarga duch kelmaydilar. Agar xotin o'z oilasida biriga singil, biriga opa bo'lib katta bo'lgan bo'lsa, u yoki bu tajriba eri bo'lgan munosabatlarda qisman komplementar vazifani bajaradi. Nihoyat, agar er o'z oilasida to'ng'ich farzand va xotin ham o'z oilasida to'ng'ich bo'lgan bo'lsa, unda er-xotin munosabatlari nokomplementar nikohga to'g'ri keladi, ya'ni, ular teng mavqeli bo'lgani uchun odatda o'zaro munosabatlarida liderlik va o'zaro adaptastiya holatlari muayyan qiyinchiliklar va muammolar bilan kechadi, tez-tez bir-biriga nimalarnidir da'vo qiladigan, o'z fikrini uqtirish va amalga oshirishga moyillik kuzatiladi. Odatda bunday nikoh ikki ziyoli inson o'rtasida tuzilgan bo'lsa, ular baxtli bo'lislari mumkin, ayniqsa, hozirgi davrda, lekin o'zaro til topishib, ko'nikib ketishlariga anchagina vaqt, sabr-toqat kerak bo'ladi.

Ota-onasining oilasida ko'rgan-kechirganlari bolaning bo'lg'usi oilasi, undagi er-xotin munosabatlari, farzandlar tarbiyasi, qarindosh-urug'lar bilan bo'ladigan murakkab o'zaro aloqalarning qanday kechishini belgilovchi muhim omildir. Ushbu omilning ta'sirini batafsil o'rgangan olimlardan biri N. Pezeshkian (1993) bo'lib, u bunday ta'sirchanlikning 3 jihatini alohida ajratadi:

- turli stresslarga nisbatan munosabat;
- hissiyotlarga beriluvchanlik va uning oqibatlari – ijtimoiy xatti-harakat me’yorlari;
- oilaviy munosabatlar.

Pezeshkian ota-onalarda oilasida ko’rgan-kechirganlari ta’sirida turli stresslarga hozirjavoblikning to’rt xil tipik usullarini, yo’llarini ajratadi: Avvalo, bu – tana reakstiyalari yoki vujud bilan javob berish bo’lib, u turli psixosomatik kasalliklar yoki holatlarga nisbatan inson vujudining javobi (masalan, uyqu, kayf bo’lish, ochlik yoki to’qlik kabi) sifatida namoyon bo’ladi. Bunda masalan, ota-onalarda urch bo’lgan xazil-xuzul, aytishuvlar orqali u yoki bu zarar etkazuvchi tangliklarning oldini olish tajribasi nazarda tutiladi.

Faoliyat ham stressning oldini olish vositasi sifatida muallif tomonidan ikki yo’nalishda bo’lishi mumkinligi qayd etiladi. Masalan, birinchisi – ishga mukkadan ketish orqali stressni echish bo’lsa, ikkinchisi – u yoki bu sohadagi yutuqlar va qo’lga kiritilgan natijalar orqali o’zini-o’zi tinchlantirish, tangliklardan “qochish”ni anglatadi.

Muloqot yoki bevosa muomala shaklida odam ko’proq turli suhbatdoshlarni topib, ular bilan kirishib ketish orqali yoki aksincha, o’zini yolg’izlikka mahkum etish orqali stressni engillatish usuli bo’lsa, oxirgi yo’l – xayolga berilish, ya’ni, real harakatlarni ramziy taassurotdagi obrazlar bilan almashtirish hisobiga tangliklardan uzoqlashishdir.

Hissiyotlarga berilish hamda uni ijtimoiy xatti-harakat normalariga muvofiqlashtirish – bu ko’rgan-kechirgan hissiyotlar va xulq namunalari to’g’risidagi tasavvurlar. Pezeshkian bevosa hissiy-emotional normalarga sevgi-muhabbatni, ishonch, umid, sabr-qanoat, o’zgalarga e’tiborli bo’lish, o’zgalar bilan yaqin samimiy munosabatlarga kirisha olish, e’tiqodlilik, diniy hissiyotlarni kiritadi. Bunday hissiyotlar odatda ota-onasi, yaqinlari, aka, opalar, uka-singillar bilan o’zini identifikasiya qilish, o’zini ular bilan solishtirish, o’xshashlikka intilish jarayonida shakllanadi. Aynan shu sababli inson kimgadir ishonishga, samimiy muruvvat ko’rsatishga o’rganadi. Oila muhitida boshdan kechirgan

hissiyotlar oqibati bo'lmish xatti-harakatlar normalariga esa bir so'zlilik, saranjom-sarishtalik, ozodalik, samimiyat,adolatlilik, intiluvchanlik, tejamkorlik, sadoqat, ishonch, xalollik kabilar kiradi. Pezeshkian, ayni emostional sohalarda er-xotin o'zaro munosabatlarining o'xshamasligini er-xotin nizolarida asosiy nizo keltirib chiqaruvchi sabab, deb hisoblaydi. Xatti-harakat normalaridagi kelishmovchiliklar ham muhim, lekin ular psixoterapevtik amaliyotda biroz yumshoqroq hisoblanadi.

Ijtimoiy va oilaviy munosabatlar. Bola tajribasining asoslardan biri undagi ota-onas oilasi ta'sirida shakllanadigan ijtimoiy fe'l-atvordir. Ya'ni, o'zaro ishonch, o'zini-o'zi baholash, Men-konstepsiyasi ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari ta'sirida bola ongida shakllanadigan hislatlardir. Bola ota-onasining o'zaro muloqotlariga qarab, umri mobaynida kuzatib, bilib-bilmay ularga taqlid qilib, tinchlik – xotirjamlikda, o'zaro hamjihatlikda yashashga o'rgansa, aka-uka, opa-singillariga qarab, jamiyatdagi murakkab o'zaro muomala holatlarida o'zini qanday tutishga o'rganadi, hayotning ma'nosini tushunib boradi, dunyoqarashi, dunyoviy hamda diniy e'tiqodlarining shakllanishi ham ayni shu munosabatlar ta'sirida ro'y beradi.

Er-xotin munosabatlari avvalo adaptastiya, ya'ni bir-biriga asta-sekin ko'nikib, moslashib borish jarayonidan boshlanadi, zero, ularning har biri yangi muhitga, yangi ro'zg'orga o'z oilasida orttirgan shaxsiy tajribasi, oila to'g'risidagi ijtimoiy tasavvurlari bilan kirib keladi. Natijada ota-onasi oilasida olgan tajribaning bir qismidan voz kechgani holda, yangi munosabatlar uchun yangi fazilatlarni o'zida tarbiyalay boshlaydi.

Oilaga yo'naltirilgan siyosat dasturi: XXI asr oilasi konstepsiyasi

XX-XXI asr konstepsiyasini yaratish va uni hayotga joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – milliy an'analar, urf-odatlar, umuminsoniy kadriyatlar va jamiyat taraqqiyoti istiqbollarini hisobga olgan oila va uning ijtimoiy muhofazasiga aloqador tashkilot va jamoatchilik muassasalari uchun, oila borasida ilmiy izlanishlar olib boruvchi olimlar va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga mas'ul bo'lgan ta'lim va tarbiya masakanlari, ota-onalar uchun o'zbek mentaliteti,

xalqimizning o'lmas madaniy meroslari, milliy qadriyatlarni inobatga olgan va uning ertasini belgilovchi metodologik hamda nazariy-amaliy qarashlar majmuini yaratishdan iboratdir. Bu ish Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazida "Ona va bola yili" davlat dasturi doirasida ishlab chiqildi.

XXI asr oilasi konstepsiyasini yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad – O'zbekiston Respublikasining asriy an'analari, oilaviy urf-odatlari, milliy qadriyatlarini tarixiy-etnografik asosda o'rgangan holda O'zbekiston oilalarining istiqbolini belgilovchii ustivor vazifalarni va faoliyat strategiyalarini belgilashdan iboratdir.

O'zbekiston oilalariga xos bo'lgan ustivor xususiyatlar, milliy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan oilaviy udumlar, rasm-rusmlar va an'analarning shaxsga tarbiyalovchi ta'sir ko'rsatuvchi jihatlari ilmiy jihatlarini ochishga yo'naltirilgan ushbu hujjat Respublikamizda istiqlol yillarida oilani ijtimoiy jihatdan himoya qilish, ota-onalarga berilgan imtiyozlar va bola tarbiyasi uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ularning komil inson tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarini inbatga olgan holda mavjud bo'lgan muammolar doirasida oilaning istiqboli, rivojlanish tendenstiyalarini belgilaydi. «XXI asr oilasi» konstepsiyasi asosida oilani kompleks o'rganish dasturi taklif etilgan.

Mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan oila siyosatining tom ma'nosi XXI asr oilasining istiqboldagi rivojlanishi va taraqqiyotining ustivor yo'nalishlari jamiyat taraqqiyotining kafolatlari to'g'risidagi ezgu g'oyalarimizga hamohangdir. Shunga tayangan holda XXI asrda oilalar rivojlanishiga asos bo'luvchi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy omillar va tamoyillar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

- XXI asr oilasi jamiyatda ustivor bo'lgan demokratik tamoyillarga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchlarning sub'ektiv xohish-irodasiga qaram bo'lmaydigan, jamiyatni olg'a rivojlanishiga to'siq bo'luvchi illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan maskan rolini o'ynaydi;
- Yangi asr oilasi milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlar, an'analalar va udumlarning jamiyat rivoji va oila barqarorligiga xizmat qiluvchi jihatlarini ilg'or,

insoniyat taraqqiyotiga aloqador an'analar bilan uyg'unlashtiruvchi tabiiy makondir;

- XXI asr oilasi insonparvarlik va demokratiya tamoyillarining tom ma'noda jamiyatda ustivor bo'lishi va har bir jamiyat a'zosi bo'lgan fuqaro tomonidan ongli tarzda idrok qilinishi uchun ma'rifat mifikabini o'ynaydi;
- XXI asr oilasi umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, mamlakatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlanishi uchun ma'naviy qo'rg'on rolini o'ynaydigan ijtimoiy institutdir;
- XXI asr oilasi "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat", "Inson va uning manfaatlari har narsadan ulug'" degan tamoyillarni o'z a'zolari ongiga singdirish uchun qulay bo'lgan mafkuraviy muhitdir;
- XXI asr oilasi xalqimizning ma'naviy boyliklarini, jahon stivilizasiyasining eng ilg'or yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradigan va shu asnoda har tomonlama barkamol sog'lom avlodni tarbiyalovchi maskandir;
- XXI asr oilasi har bir fuqaroning kuch va iqtidorini o'z halol va safarbar mehnati orqali ro'zg'orning iqtisodiy takomilini ta'minlash, shu orqali jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining samaradorligi va qudratini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar makonidir. Oila iqtisodini barqarorlashtirishda oilaviy tadbirkorlik, ijara, oilaviy ishlab chiqarish, kasanachilik shakllaridan oqilona foydalanadi va oila byudjetini yaxshilash, turmush tarzini farovonlashtirish uchun zamonaviy texnika va texnologiyalardan, maishiy xizmat shahobchalari xizmatidan unumli va o'rindi foydalanadi;
- XXI asr oilasi o'z fuqarolarida yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali insonlarga berilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatini ta'minlovchi, bunda milliy, umuminsoniy va demokratik tamoyillar ma'no-mohiyatini etkazuvchi ijtimoiy institutdir;
- XXI asr oilasi o'zining intellektual salohiyati, aql-zakovati va iqtidori bilan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanish orqali innovastion kashfiyotlar va yuksak texnologiyalarni oila barqarorligiga yo'naltiruvchi, sog'lom ijodiy muhitni ta'minlovchi makondir.

## **1.2. Ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasining 2-qismiga binoan, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan hayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi.

Oila kodeksini maysus 6-bo'limi ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllariga bag'ishlangan. 19-bob, 148-150-moddalar.

Oila kodeksining 148-moddasiga muvofiq, ota-onalik vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, uzoq muddat bo'limganda, ota-onalik bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'hshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

2012-yil mamlakatimizda "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilindi. Oilalarning mustahkamligi bolalarning bekamiko'st hayot kechirishlari, komil inson bo'lib voyaga yetishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishlari yuzasidan sud-prokuror amaliyoti hamda mazkur huquqlardan mahrum qilingan shahslarning farzandlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ahvoli umumlashtirildi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish ishlari Oila kodeksi 80-moddasining talablariga binoan vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rilib lozim.

2000-yilda respublikamizda sudlar tomonidan ko'rilib 330 ta fuqarolik ishlarining 14 tasida vasiylik va homiylik organlari ishtirok etmaganlar.

Oila kodeksining 148-moddasida nazarda tutilgan holatlar yuz berganda vasiylik va homiylik organlarida bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish majburiyati vujudga keladi. Ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlarining ham huquqi va majburiyatidir. Chunki bu huquq va majburiyatlarni amalga oshirish vakolti davlat tomonidan vasiylik va homiylik organlariga berilgan. Shuning uchun ham bolaning ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lганлик fakti qachon ro'y beraganligi va bu faktning mavjudligini nimalar tasdiqlashini bilish muhim ahamiyatga egadir<sup>14</sup>.

Ma'muriy organlar faoliyatida ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari o'z vaqtida ijroga qaratilsada vasiylik va homiylik organlari o'z vazifalariga sovuqqonlik bilan qarab, qarorlar ijrosini o'z vaqtida bajarmaslik holatlari hamon uchrab turmoqda.

Jumladan, Toshkent viloyati Chirchiq shahar sudining 1998-yil 24- iyundagi hal qiluv qarori bilan Bagautdinova G. onalik huquqidan mahrum qilingan. Lekin shahar hokimining 1993-yilda tug'ilgan voyaga yyetmagan Ruslan Bagautdinovni bolalar uyiga joylashtirish to'g'risidagi qarori 1999-yil 26-martda, ya'ni 8 oydan keyin qabul qilingan va u bir oydan keyin bolalar uyiga joylashtirilgan. Natijada bola 9 oy ahloqi yahshi bo'lмаган onasi bilan birga yashagan.

Shunga o'xshash, 1986-yilda tug'ilgan Leonid Dobrenkoning onasi 2000-yil 2-fevralda onalik huquqidan mahrum qilingan. Chirchiq shahar hokimining qarori 2000-yil 19-aprelda chiqarilgan, Bolalar uyiga yo'llanma esa 9 oydan keyin, ya'ni 2001-yil 15-yanvarda olingan. Ushbu holat bo'yicha vasiylik va homiylik organi hodimlarining sovuqqonligi va bolalar taqdiriga befarqligi oqibatida bola 11 oy davomida huquqidan mahrum qilingan onasi bilan yashashi davom etgan.

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar sudining 2000-yil 31-iyuldagagi hal qiluv qarori bilan J.Sapayeva onalik huquqidan mahrum etilgan. Uning farzandi, 1991 yilda tug'ilgan Aziz Sapayevni, mehribonlik uyiga joylashtirish haqida hokim

---

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharxlar. -T., "Adolat", 2000, 282-bet.

qarori chiqarilishi uchun 6 oy vaqt ketgan (2000-yil 12-dekabrda). Bu davr ichida bola hulqi yahshi bo'limgan onasi tarbiyasida bo'lgan.

Ota-onasidan mahrum bo'lgan bolalarning uy-joylari ular voyaga yetgunga qadar saqlanishi lozim bo'lsada, lekin ayrim hollarda bunday bolalarning uy-joylari sotilishga yoki ularning boshqa moddiy va ijtimoiy huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmoqda. Bu esa, o'z navbatida vasiylik va homiylik organlari tomonidan Oila kodeksining 182-moddasiga binoan vasiy va homiyalar o'z vazifalarini bajarishlari ustidan nazorat yetarli darajada o'rnatilmaganligidan dalolat beradi.

Ota-onasidan mahrum bo'lgan bolalar aniqlangandan keyin dastlabki tekshirishda ikkita hujjat: bolaning turmush sharoitini tekshirish yakunlari haqidagi bayonnomaga va unga asoslangan xulosa tuziladi. Tekshirish davomida, agar zarurat tug'ilsa, bolaning mulkini qo'riqlash choralari ko'rildi. Bunda mahalla faol ishtirok etishi talab etiladi. Bugungi kunda bolalarini qarovsiz qoldirib, boshqa davlatlarga noqonuniy ishga ketib qolayotgan ota-onalarning bolalariga ham e'tibor qaratish masalasi dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu sababli bunda jamoatchlik nazoratini yanada kuchaytirish, bu borada qonunchilikka ma'lum normalarni kiritish hamda mahalla va ta'lim muassasalarining ma'suliyatlarini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

### **1.3. Ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash, hisobga olish va joylashtirish.**

Oila kodeksini 149-moddasi vasiylik va homiylik organlari tomonidan ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish tartibini belgilaydi.

Ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom"da belgilab qo'yilgan.

Ota-onasining qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

Oila kodeksini 149-moddasini 3-qismiga binoan quyidagilar ota-onasining qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalar haqida vasiylik va homiylik organlariga habar berishga majburlar:

- Maktabgacha tarbiya muassasasining mansabdar shahslari;
- Umumta’lim muassasalarining mansabdar shahslari;
- Davolash muassasalarining mansabdar shahslari;
- Aholini ijtimoiy himoyalash muassasalarining mansabdar shahslari;
- Fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlari (fuqarolar yig’ini, mahalla qo’mitalari va boshqalar)ning mansabdar shahslari;
- qarovsiz qolgan bolaning yaqin qarindoshlari;
- fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo’limlari (FHDYO) ning mansabdar shahslari (agar shahsning o’lganligini yoki o’lgan deb e’lon qilinganligini qayd etishda bolaning qarovsiz qolganligi ma’lum bo’lib qolsa);
- sud ota-onalik huquqididan mahrum qilish yoki ota-onalik huquqini cheklash, muomalaga layoqatsiz deb topish haqida va bolaning ota-onasining qaramog’idan mahrum qilinishiga sabab bo’lgan holatlar haqida hal qiluv qarori chiqarganda;
- o’z faoliyati turiga muvofiq oila va bolalar bilan bog’liq boshqa muassasalarning mansabdar shahslari;
- shunday bolalar haqida ma’lumotga ega bo’lgan boshqa mansabdar shahslar va fuqarolar.

O’zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to’g’risidagi Nizomning 7-bandiga binoan Oila kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga binoan vasiylik va homiylik organlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

- A) ota-onasining qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni aniqlaydilar, ularni hisobga oladi va ota-onasining qaramog’idan mahrum bo’lgan har bir holatidan kelib chiqib, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydilar (Oila kodeksini 149-moddasi)

B) bola manfaatlari uchun zarur hollarda unga vasiy yoki homiy tayinlaydilar (Oila kodeksini 177, 179-moddalari);

Vaqtinchalik bolalarni joylashtirish ularni qarindosh-urug'lariga yoki bolalarga yaqin bo'lgan shahslarga berishdan iborat. O'zbek oilalarida bolalar tog'asi, ammasi, amakisi va holasiga beriladi. Qadimdan mahalliy halqlarda yetim bolalar yaqin qarindoshlari tarbiyasida qoldirilgan. Ota-onasidan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qarindosh-urug'larida qoldirish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanib bolalar yaqin kishilaridan uzoqlashib kyetmagan. Bolalar yaqin qarindoshlarida qoldirilsa ota-onasidan ajralib qolganliklarini unchalik sezmaydilar. Agarda bolalarni bunday shahslarga berishlikni iloji bo'lmasa unday holatda ular bolalar muassasalariga joylashtirilgan. Bunday joylashtirishdan asosiy maqsad bolalarga oila tarbiyasini berishdan iborat. Bolalarni oilada tarbiyalashning ustunligini ko'rsatadi.

Ota-onasidan qaramog'idan mahrum bo'lkan bolalar, tarbiyalanish uchun oilaga joylashtiriladigan bolalar albatta hisobga olinishi kerak.

Hisobga olishni bunday tartibi bolalar manfaatlarini har taraflama himoya qilishga qaratilingan. Undan maqsad bunday bolalar to'g'risidagi ma'lumotnomani markazlashtirilgan va hammabop bo'lib har bir bola osonlikcha joylashtirilishi uchun imkoniyatga ega bo'lib o'ziga tegishli sharoitlar bo'lishi kerak. Biryo'li bolalarni bunday qayd etish tizimi ularni oilaga tarbiyalash uchun berishda suiiste'mol qilishlikka yo'l qo'ymaslikdan iborat.

Oilaga bolalarni tarbiyalash uchun berishda dastlabki ma'lumotnomani birinchi navbatda ularni davolash va tarbiyalash muassasalarining rahbarlariga topshiriladi. Qoida asosida birinchi navbatda ularga bolalarni tarbiyaga berish to'g'risida u nima bilan bog'liq ekanligi to'g'risida habar beriladi. Masalan, bolani ota-onasining vafot etishi ushbu muassasadon bolani olib ketishlikni rad etish, ota-onalarni ota-onalik huquqidon mahrum etish. yetti kun ichida bunday bolalar to'g'risida vasiylik organlariga bunday bola oilaga tarbiyaga berish to'g'risida bolalar muassasalarini rahbarlariga ma'lum bo'lganligi to'g'risida habar berishlari lozim.

Ota-onasiz qolgan bolalar to'g'risida birinchi hisob bolalar yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Vasiylik va homiylik organlari bir oy davomida bolalarni oilaga joylashtirish ma'lum bo'lgandan so'ng habar beriladi.

Oila kodeksini 150-moddasiga, ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo'limganda esa, yetim bolalar yohud ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'hshash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.

Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari har hildir.

Amaldagi oila qonunchiligi bolalarni joylashtirishda ularni oilaga tarbiyaga olinishini ta'minlovchi shakllarga (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oilaga berish) afzallik beradi.

Bolani oilada yashashi va tarbiyalanishi uning "Bola huquqi to'g'risida"gi Konvensiyada va Oila qonunchiligidan nazarda tutilgan eng muhim huquqlaridandir. Bu holatda, odatda bolaning o'z ota-onasi oilasida yashashi va tarbiyalanishi tushuniladi.

Bolalarni joylashtirishda uni etnik kelib chiqishi, ma'lum din va madaniyatga tegishli ekanligi, ona tili, tarbiyalash va ma'lum olishda izchillik holati hisobga olinishi kerak.

Oila kodeksini 150-moddasini 2-qismiga binoan, ... oilaga yoki muassasalarga tarbiyalash uchun joylashtirish masalasi hal bo'lguniga qadar vasiylik (homiylik) majburiyatlarini bajarish vaqtincha vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

## **II bob. Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari.**

### **2.1. Farzandlikka olish tushunchasi, shartlari va tartibi.**

Farzandlikka olish Oila kodeksini 20-bobi, 151-172-moddalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi 171-sod qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yyetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarga oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinadi.

Farzandlikka olish munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar ota-onasi bo'limgan yoki har hil sabablarga ko'ra ular tarbiyasidan mahrum bo'lib qolgan bolalarga oilaviy tarbiyani ta'minlab, bolalar huquq va manfaatlarini qo'riqlashga qaratilgandir.

Farzandlikka olish huquqiy dalolatnama bo'lib, bunga asosan farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinuvchilar o'rtasida ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi kabi huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi.

Farzandlikka olish tufayli bolalar yangi ota-onalarga va boshqa qarindosh-urug'larga ega bo'lib o'zlarining ota-onalari va qarindosh-urug'lari bilan huquqiy munosabatni tugallaydi.

Farzandlikka olish bu huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi va bekor qiluvchi akt bo'lib hisoblanadi.

Oila kodeksini 151-moddasini 1-qismiga binoan, farzandlikka olishga faqat voyaga yyetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina qo'llab yo'l qo'yildi.

O'zining belgilangan maqsadi bo'yicha farzandlikka olish instituti juda insonparvar institutdir. U o'z ota-onalaridan mahrum bo'lgan yoki ayrim sabablarga ko'ra ota-onas tarbiyasini olaolmaydigan bolalarga normal oilaviy tarbiyani ta'minlashga qaratilgandir. Farzandlikka olish tufayli ota-onasini yo'qotgan bola boshqa oilaga joylashtirilib, unga oilaviy tarbiya beriladi. Farzandlikka olinuvchilar farzandlikka oliuvchilar tufayli hamma masalalarda ota-onasini o'rnini bosadigan shahslarga ega bo'ladilar.

Farzandlikka olish tufayli bolalari bo'limgan shahslar otalik va onalikdan iborat bo'lgan tabiiy ehtiyojlarini qondiradilar. Farzandlikka olish ayniqsa Ikkinchiji ahon urushi yillarida juda ko'p tarqagan bo'lib, fuqarolar ota-onasidan yetim qolgan bolalarni o'z bag'rilariga olib ularga nisbatan mehribonlik qiladilar.

O'zbekistondagi ko'pgina bolalarni o'z bag'rige olib tarbiyalagan oilalar juda ko'p. Jumladan, rus, o'zbek, qozoq, qirg'iz, yahudiy, tatar, moldavan va boshqa millatlarning 14 bolasini o'z bag'rige olib, ularni bir-biriga do'st, mehribon, aka-ukadek qilib o'stirgan oddiy temirchi SHomahmud SHomahmudov va uning rafiqasi Bahri Akramovaning vatanparvarligi juda yuksakdir. Vatan va halq oldidagi bu oljanob ishlari uchun ular davlat tomonidan yuksak rag'batlantirildi. Toshkent shahri Halqlar do'stligi maydonida ularga haykal o'rnatildi. Bunday mehribon ota-onalar jamiyatimizning fahridir<sup>15</sup>.

Farzandlikka olish - bu o'zganining farzandini o'z farzandiga tenglashtirib olishdir. Farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtaida tuqqan ota-onalar bilan bolalar o'rtaсидаги каби huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

Farzandlikka olish farzandlikka oluvchi (va uning qarindoshlari) hamda farzandlikka olinganlar (va ularning bo'lg'usi avlodlari) o'rtaida qonunda ota-onalar bilan belgilangan qonun hujjalarda mahsus ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmaganligidan qat'iy nazar, barcha shahsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltiradi.

Farzandlikka olish juda qadimiy huquqiy institut bo'lib, hozirgi zamon huquq tizimida o'z ifodasini topgan, ota-onalar vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga joylashtirishdan iborat.

Farzandlikka olish shartlari deyilganda, farzandlikka olish uchun qonun bilan belgilangan shahslarning roziliklari tushuniladi. Ular doirasiga quyidagilar kiradi: a) bolaning ota-onasi yoki ularning o'rmini bosadigan shahslarning roziligi, b) o'n yoshga to'lgan bolani o'zining roziligi; v) agar er-hotindan bittasi tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa farzandlikka olayotganni eri yoki hotini.

---

<sup>15</sup> F.Otaxo'jayev. Oila va qonun. -T., 1983y, 29-bet.

Bu shartlarni mohiyati nimalardan iborat. Bu shartlar mazmunini nimalarning anglatadi.

Oila kodeksini 159-moddasiga binoan, bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi talab etiladi.

Ota-onaning bolaning farzandlikka olinishiga roziligi yozma shaklda bayon etilishi kerak.

Oila qonuniga ko'ra quyidagi hollarda ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi;

    Ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;

    Ota-onsa ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;

    Ota-onsa muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa;

    Ota-onsa bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolalardan uzrli sabablarsiz habar olmagan bo'lsa.

Farzandlikka olishni navbatdagi sharti bo'lib, o'n yoshga to'lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi.

Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanadi (Oila kodeksini 155-moddasi).

Farzandlikka olishda bolani farzandlikka olishga bo'lgan munosabatini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo'lib uni huquq va manfaatlarini qo'riqlashga qaratilingan.

10 yoshga to'lish bilan bola bo'layotgan ishga o'z erkini ongli ravishda izhor qilishligi mumkin. Bu maqsadlarni nazarda tutib vasiylik va homiylik organlari tushunarli asosda farzandlikka olishni mohiyatini va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni: bola va farzandlikka oluvchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, ularning qarindoshlari, ota-onalari (aka-ukalari, pasangillari va bobo-buvilari) o'rtasidagi munosabatlarni tugallanishi); familiya, ota ismini, ota-onalar to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni o'zgartirishdan iborat.

Farzandlikka oluvchini shahsiyati to'g'risida bola shahsan habardor bo'lishligi kerak.

Oila kodeksini 156-moddasiga muvofiq agar bola farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanayotgan bo'lsa va ularni o'z ota-onasi deb e'tirof etsa, farzandlikka olish farzandlikka olinayotgan bolaning roziligesiz amalga oshirilishi mumkin.

Binobarin, farzandlikka olish farzandlikka olinganlar, farzandlikka olganlar uchun o'ziga xos ne'mat, yuksak insoniy tuyg'ularni qanoatlantirish hisoblanadi. Ayni vaqtda, bu jamiyat uchun ham g'oyat foydalidir. Bolani normal o'sib, kamol topishi uchun eng asosiy shart-sharoit-ota-onamehr-muhhabbat, g'amxo'rligi, oila muhiti ta'minlanadi. Eng asosiysi, farzandlikka olingan bolalar bilan farzandlikka oluvchilar o'rtasida haqiqiy ota-onava farzandlar kabi doimiy, barqaror o'zaro ishonch, mehr-muhabbat, mas'uliyati, g'amxo'rlik, qon-qarindoshlikka asoslangan shaxsiy munosabatlar vujudga keladi. Biroq bunday munosabatlar darz ketishiga, bolani ruhiy ahvoli, qalbi ozor chekishiga, farzandlikka oluvchilarni o'ta noqulay ahvolga tushib qolishlariga va boshqa qator og'ir holatlar vujudga kelishiga sabab bo'luvchi bir xavf bor-bu farzandlikka olish sirini oshkor bo'lishi hisoblanadi. Xuddi shu sababli farzandlikka olish siri qonun tomonidan har tomonlama muhofaza ostiga olingan.

Farzandlikka olishda bo'lajak ota-onu uchun oilaviy-huquqiy munosabat avvaldan mayjud bo'ladi. Ya'ni, ularning o'zaro nikohda bo'lishi oilaviy munosabat vujudga kelganligidan dalolat beradi. Farzandlikka olish natijasida bola uchun yangidan oilaviy-huquqiy munosabat vujudga keladi, xuddi oilada yangidan farzand dunyoga kelgani kabi. Farzandlikka oluvchi ota-onaga qonun tomonidan bir qator huquq va majburiyatlar beriladi. Bolaga esa, uning uchun asosiy, baxtli bo'lib voyaga etishadigan, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvenstiyada nazarda tutilgan huquq - oilada yashash va tarbiyalanish huquqi ta'minlanadi.

F.M.Otaxo'jaevning ko'rsatishicha, farzandlikka olish – bu o'zganing farzandini o'z farzandiga tenglashtirib olishdir, bu bolalarga, ayniqsa e'tiborga zor bolalarga mehr-muruvvat ko'rsatishning yorqin timsolidir. Bunda farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida tuqqan ota-onabilan bolalar

o’rtasidagi kabi huquqiy munosabatlar vujudga keladi<sup>16</sup>. Fikrimizcha, farzandlikka oluvchi va farzandlikka olingan bola o’rtasidagi munosabat qarindoshlikka tenglashtiriladi xolos. Chunki, Oila kodeksining 165-moddasi talabiga ko’ra, farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o’z bolalariga tenglashtiriladi. Qonunchilik nuqtai nazaridan ota-onalar va farzandlikka oluvchilarning huquqiy munosabatlari mazmuni o’xshash bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasida farzandlikka olish ma’muriy tartibda belgilanadi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni xohlagan shaxslarning arizasiga, vasiylik va homiylik organlari tavsiyasiga ko’ra tuman, shahar hokimi qarori bilan amalga oshiriladi (OKning 151-moddasi). Demak, avvalo farzandlikka olish uchun farzandlikka oluvchi bu to’g’risida muayyan qarorga kelishi, oilaviy maqsadi bo’lishi lozim bo’ladi. Oilaviy huquqiy normalar esa, ushbu munosabat ishtirokchilarini yo’naltirib, ularning xatti-harakatlarini muayyan normalar orqali tartibga soladi.

Farzandlikka olishda turli xil suiiste’molchiliklar bo’lishiga, qonun buzilishi hollariga yo’l qo’yib bo’lmaydi. Shu bilan birga vasiylik va homiylik organlari ish faoliyatida ham kamchiliklar mavjud. Ular faoliyatida turli rasmiyatchiliklar, asossiz ravishda sarsongarchiliklarga yo’l qo’yish holatlari ham uchrab turadi.

Hozirgi kunda farzandlikka olishning sud tartibida amalga oshirilishini o’rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki, aynan sud tomonidan farzandlikka olishda suiiste’molchiliklar qilishning oldi olinishi, turli sansalorliklardan voz kechishga, shuningdek, farzandlikka olishning nafaqat qonuniy bo’lishi balki, voyaga etmaganlarning manfaatiga qay darajada mos kelishini belgilashi mumkin. Sud tomonidan barcha holatlarga oqilona baho berilishi, shuningdek, farzandlikka oluvchilarning farzandlikka olishga loyiqligini tekshirish bolaning kelgusidagi taqdiriga o’zining sezilarli ta’sirini ko’rsatadi.

---

<sup>16</sup> Отахўжаев Ф. Ўзбекистон Республикасининг оила хукуки. -Т.: ТДЮИ, 2005.

Tug'ishgan ota-onaning o'z voyaga yetmagan bolalari manfaati yuzasidan qonuniy vakil sifatida qatnashishi, bolalar va ota-onaning bir-birlarini boqish bilan bog'liq majburiyatlar, meros huquqi va h.k. nazarda tutuvchi barcha normalar farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Farzandlikka olish natijasida farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (ota-onsa qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan huquqiy munosabatlarni yo'qotadilar, biroq, tug'ishganlikni yo'qotmaydi. Shu sababli, farzandlikka olingan bo'l shidan qat'iy nazar, masalan, farzandlikka olinganlar hamda ularning to'g'ri va yon shajara bo'yicha qarindoshlar o'rtasida nikohga kirishga monelik qiluvchi holat hisoblanadi.

Farzandlikka olish siri har qanday farzandlikka olishning majburiy shartli elementi bo'lib hisoblanmaydi. Ayrim holatlarda esa farzandlikka olish farzandlikka olinuvchi uchun sir bo'lib hisoblanmaydi. Masalan, o'n yoshga to'lgan bolalardan ularning roziligi so'ralish hollarida yoki o'z ota-onasini eslay oladigan bolalar uchun farzandlikka olish siri mavjud bo'l maydi. Boshqa holatlarda esa, agarda farzandlikka olish vaqtida bola yoshi nuqtai nazaridan yoki boshqa biron sabablarga ko'ra farzandlikka olish faktidan bexabar bo'lsa, qonun farzandlikka olish sirini saqlashni farzandlikka oluvchi erk-irodasi bilan bog'laydi.

Farzandlikka olish huquqiy oqibatlari quyidagicha turkumlash mumkin bo'ladi: a) shaxsiy (familiya, nasab, qon-qarindoshchilik); b) mulkiy (ta'minot, meros, boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya); v) o'zaro huquq va majburiyatlar (tarbiyalash, birga yashash, g'amxo'rlik, mas'uliyat); g) huquqiy, axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy va h.k. Ushbu huquqiy oqibatlar farzandlikka olinuvchi manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda amaldagi Oila kodeksida va farzandlikka olishni huquqiy tartibga soluvchi boshqa qonun xujjalarda tizimlashtirilgan tarzda ifodalanishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Fransiya oila qonunchiligida farzandlikka olishning ikki usuli mavjud bo'lib, ular to'liq va cheklangan farzandlikka olishdir. To'liq farzandlikka olishda farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchi shaxsiy va mulkiy huquqiy munosabatlarda tug'ishgan qarindoshlarga tenglashtiriladi. Farzandlikka

olinuvchiga farzandlikka oluvchining familiyasi beriladi, uning ismi o'zgartirilishi mumkin, o'zaro aliment to'lash majburiyati vujudga keladi va h.k. Cheklangan farzandlikka olishda esa, farzandlikka olinuvchi va uning tug'ishgan qarindoshlari o'rtaida qisman huquqiy aloqa mavjud bo'ladi. Farzandlikka olinuvchi tug'ishgan qarindoshlaridan so'ng meros olish huquqi va mehnatga layoqatsiz ota-onasini ta'minlash majburiyati saqlab qolinadi. Demak, cheklangan tartibda farzandlikka olingen farzandlikka olinuvchi o'zining ota-onasi hamda farzandlikka oluvchidan so'ng meros olish imkoniyatini qo'lga kiritadi<sup>17</sup>.

Xuddi shunday tartibda ya'ni, to'liq va cheklangan tartibda farzandlikka olish Polsha, Chexiya, Ruminiya, Bolgariya kabi davlatlarda ham mavjud. Har ikkala usul ham o'zining xususiyatlariga ega bo'lib, ularning huquqiy oqibatlari bir xil bo'lmaydi. Cheklangan tartibda farzandlikka olishda farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchining meros huquqiga oid huquq va majburiyatlarida cheklashlar bo'ladi<sup>18</sup>.

Oila kodeksining 164-moddasida zarur hollarda bolaning tug'ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo'lмаган farq bilan o'zgartirilishi mumkinligi belgilangan. Muallif fikricha, bola tug'ilganidan so'ng bir yil oralig'ida sanani o'zgartirish maqsadga muvofiq emas, chunki uch yoki to'rt oylik go'dakning fiziologik va ruhiy rivojlanish ko'rsatkichlari endi tug'ilgan go'daknikidan jiddiy farq qiladi va tibbiy nuqtai nazardan ham har bir oyda o'zgarib borib jiddiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bolaning tug'ilish sanasiga o'zgartirish kiritish bir yoshdan oshgandan so'ng tatbiq etilishi maqsadga muvofiq bo'lur edi.

O'zbekiston Respublikasining Oila qonunchiligi chet ellik fuqarolar tomonidan farzandlikka olish uchun cheklovlar bermaydi, biroq, xalqning manfaatlaridan kelib chiqib o'z fuqarolari tomonidan farzandlikka olishlari uchun ustunlik huquqi beradi. Xorijiy davlatlar, jumladan MDH mamlakatlarining ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga etmagan bolalarning chet elliklar

<sup>17</sup> Дюжева О. Усыновление по семейному праву Франции. //Тезисы докладов на теоретической конференции аспирантов института государства и права АН СССР и юридического факультета МГУ. –М.: 1983. с.94.

<sup>18</sup> Семейное право зарубежных европейских социалистических стран. –М.: 1979. с.361.

tomonidan farzandlikka olishlari jamoatchilik orasida ko'plab bahs-munozaralar, tanqidlarga sabab bo'layotganligi ma'lum.

Jumladan, oxirgi 12 yilda chet elliklar tomonidan 19 mingdan ziyod ukrainalik bolalarni bolalar uyidan farzandlikka olishgan. Ularning ko'pchiligi AQSh, Isroil, Italiya, Chexiya, Franstiya, Germaniya, Belgiya va Shveystariyaga olib ketilgan. Ularning 1400 nafari taqdiri haqida konsullik xizmatlarida ular 18 yoshga to'lgunlaricha Ukraina fuqarolari sanalishsada, hech qanday ma'lumot mavjud emas<sup>19</sup>. Amerika Qo'shma Shtatlarida esa, farzandlikka olish siri muqaddas sanaladi. Xattoki, AQShda farzandlikka olingan bolalar haqida ma'lumot yig'ish ham qonunga asosan ta'qiq qilinadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, farzandlikka olinuvchilar huquqi qonun bilan kafolatlangan. Farzandlikka olish nafaqat milliy davlatchilik miqyosida balki, xalqaro miqyosda ham bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish borasida bir qator diqqatga sazovor ishlar qilinmoqda. Albatta, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, farzandlarimiz - bizning g'ururimizdir. Bu har bir inson uchun tushunarli, albatta. Biz haqiqatan ham o'z farzandlarimiz va nabiralarimiz bilan faxrlanishni istasak - ular zamonaviy bilim va tajribaga ega, iymonli-e'tiqodli bo'lishlariga, Vatanimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizning ishlarini davom ettirishlariga erishishimiz lozim”<sup>20</sup>.

Vasiylik va homiylik organi tomonidan farzandlikka olinganlarning oiladagi haqiqiy holati, ularning turmush tarzi, o'qish, ta'lim-tarbiya olishlari uchun imkoniyatlari va boshqa qonuniy ehtiyojlari qay darajada ta'minlanayotganligi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Biroq, bunda farzandlikka olish sirini saqlashlik, oilaviy ishlarga xaddan ziyod o'zboshimchalik bilan aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik asosiy shart bo'lib hisoblanadi.

<sup>19</sup> Кому нужны наши дети?. /Аргументы и факты, 2009г. №19.

<sup>20</sup> Каримов И.А. Фарзандларимиз биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта баҳтили бўлишлари шарт. //Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Вилоятлар, шаҳар ва туманларнинг ҳокимлари билан учрашувда сўзланган нутқ. Том 7. 1998 йил 23 декабрь.

Oila qonunchiligidagi farzandlikka oluvchining aybini isbotlashni tartibga solish masalasini hal etish tartibini belgilovchi norma mavjud emas. Bunday holatda farzandlikka oluvchiga nisbatan jinoyat prostessining mashhur “aybsizlik prezumpstiyasi” qo’llaniladimi yoki farzandlikka oluvchining aybdorligi prezumpstiyasi qo’llaniladimi?, degan savol tug’iladi. Albatta, har qanday huquqbuzarlik o’ziga xoslikka ega. Masalan, jinoyat huquqbuzarligida ob’ekt, ob’ektiv tomon, sub’ekt va sub’ektiv tomon zaruriy tarkib bo’lib hisoblansa, fuqarolik-huquqiy javobgarlik bundan jiddiy farq qiladi. O.Oqyulov, yuridik javobgarlikning an’anaviy konstrukstiyasining zaruriy komponentlari-huquqqa xiloflik va ayb ba’zi holatlarda fuqarolik-huquqiy javobgarlik belgilashda mavjud bo’lmasligiga yo’l qo’yilishini ko’rsatib, yuridik javobgarlik haqidagi doktrinalar qayta ko’rib chiqilishi lozim degan g’oyani ilgari suradi. Mazkur holatda esa, oilaviy-huquqiy javobgarlikning o’ziga xosligini e’tiborga olgan holda farzandlikka oluvchining o’z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligida farzandlikka oluvchining aybdorligi prezumpstiyasi amalda bo’lishi lozim. Chunki, oiladagi ma’naviy muhit, bolaning tarbiyasi, xulq-atvori va boshqa insoniy fazilatlarining shakllanishida farzandlikka oluvchi mas’uliyatli hisoblanadi.

Farzandlikka olishni bekor qilish va haqiqiy emas deb topish tushunchalari o’rtasida farqlanuvchi mezon bo’lishi haqida yuridik adabiyotlarda fikrlar bildirib o’tilgan. Ayrim mualliflar ushbu tushunchalar o’rtasida qarama-qarshilikning mavjud bo’lishi amaliyotda farzandlikka olish bo’yicha nizolarni noto’g’ri hal qilishga olib keladi, deb fikr bildirishgan. Milliy stivistika fanida ham bu kabi bahs-munozaralar muayyan natijaga olib keldi va farzandlikka olishni bekor qilish va haqiqiy emas deb topish muammosi yuridik texnika nuqtai nazaridan yondoshilib, bir muncha osonlashtirildi.

Oila huquqida farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish haqidagi qoidaning o’rnatalishi fuqarolik qonunchiligi normalariga mos ravishda belgilangan. Bitimlarni haqiqiy emas deb topish singari, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish farzandlikka olish haqidagi hokim qarori chiqarilgandan e’tiboran haqiqiy emas deb topiladi. Ya’ni, bitim ishtirokchilarining bitim

tuzishdan oldingi holatiga qaytarish. Albatta, vaqtni orqaga qaytarib, insonlar xotirasidan u yoki bu faktni mavjud bo'lмаган deb o'chirib tashlashning imkoniyati yo'q. Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishdan asosiy maqsad farzandlikka olish bilan bog'liq huquqiy natijaga erishilmaganlik, oilaviy-huquqiy munosabatning vujudga kelmaganligini belgilashdir.

Farzandlikka olish esa, bevosita shaxsiy (familiya, nasab, qon-qarindoshchilik), mulkiy (ta'minot, meros, boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya, o'zaro huquq va majburiyatlar (tarbiyalash, birga yashash, g'amxo'rlik, mas'uliyat)ga doir oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari bir munkha keng tushuncha bo'lib hisoblanadi.

Bu qoida bolani kutilmagan his-tuyg'u va ruhiy ta'sirlardan holi qilib, farzandlikka olinayotganni tug'ishgan o'g'il (qiz) sifatida o'sayotganligiga ta'sir etadi.

Agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinmayotgan bo'lsa, bunga hotin (er)ning roziligi talab etiladi (Oila kodeksini 157-moddasi 1-bandi). Ko'pincha amaliyotda er-hotinlarni ikkalovlari tomonidan bolalar farzandlikka olinadi.

O'zbekiston Respublikasida farzandlikka olish ma'muriy tartibda belgilanadi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni hohlagan shahslarning arizasiga va vasiylik va homiylik organlari tavsiyasiga ko'ra tuman, shahar hokimi qarori bilan amalga oshiriladi.

Oila kodeksini 163-moddasiga binoan tuman, shahar hokimining farzandlikka olishni rad etganligi ustidan farzandlikka olish haqidagi ariza bergen shahs sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.

Farzandlikka olishni istovchi shahslar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Farzandlikka oluvchilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, yashash joyi, nikohda qachondan berib turganligi, ularning birga yoki alohida yashashi, agar farzandlari bo'lsa ularning soni va yoshlari farzandlikka olinadigan bolaning familiyasi, ismi, otasiing ismi, yoshi va jinsi ko'rsatilgan arizasi;

SHahsini tasdiqlovchi hujjat;

Nikoh tuzilganligi (nikohdan ajralganlik) haqidagi guvohnomaning nushasi;

Oila a'zolari ko'rsatilgan qoida turar joydan ma'lumotnama;

Ish joyidan ish haqi ko'rsatilgan ma'lumotnama;

Farzandlikka olishni istovchi shahsning sog'lig'i to'g'risida tabbiy maslahat komissiyasining hulosasi, psihiatriya, narkologiya muassasalari, teri-tanosal kasalliklari dispanverining ma'lumotnomasi.

Farzandlikka olish to'g'risidagi tuman, shahar hokimining qarori chiqarilganidan keyin o'n kun ichida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari farzandlikka olinayotganlarning tug'ilishi qayd etilgan daftarga zarur o'zgartirishlar kiritilishi lozim.

Farzandlikka oluvchilar bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi yozuvlar daftariga uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug'ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo'lмаган farq bilan o'zgartiriladi.

Oila kodeksini 168-moddasida farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishga asos bo'ladigan holatlarning tugallangan ro'yhati berilgan.

Farzandlikka olish quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi, agar:

Farzandlikka olish qalbaki hujjatlar asosida rasmiylashtirilgan bo'lsa;

Farzandlikka olish sohta bo'lsa;

Voyaga yetgan shahs farzandlikka olingen bo'lsa;

Farzandlikka oluvchi Oila kodeksining 152-moddasiga muvofiq farzandlikka olish huquqiga ega bo'lмаган bo'lsa;

Me'yoriy hujjatda farzandlikka olishni istovchi shahslar tomonidan taqdim qilinishi lozim bo'lган hujjatlar ro'yhati berilgan. SHu ro'yhatda ko'rsatilgan hujjatlardan birining farzandlikka oluvchi tomonidan qalbakilashtirilganligi aniqlanishining o'zi belgilangan tartibda farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishni so'rab sudga murojaat qilishga asos bo'ladi.

Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish masalasini ishning barcha holatlarini hisobga olgan va bola manfaatlaridan kelib chiqqan holda sud hal qiladi<sup>21</sup>.

Oila kodeksini 169-moddasida farzandlikka olishni bekor qilish asoslari beriladi.

Farzandlikka olishni bekor qilishni asosiy asoslari quyidagilardan iborat:

Farzandlikka oluvchilar o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo'lsalar;

Ota-onalik huquqini suiiste'mol qilayotgan bo'lsalar;

Farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo'lsalar;

Muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka mubtalo bo'lган bo'lsalar bekor qilinishi lozim.

Farzandlikka olinuvchining hulq-atvori farzandlikka oluvchilarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazayotgan, ularning hayoti va sog'lig'iga havf solayotgan bo'lsa, farzandlikka olinuvchi voyaga yetganidankeyin farzandlikka olish bekor qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Sud boshqa asoslarga ko'ra ham bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning fikrini hisobga olgan holda farzandlikka olishni bekor qilishga haqlidir.

Farzandlikka olishni bekor qilish biryo'li huquqni bekor qilish va huqujni tiklovchi yuridik fakt bo'lib hisoblanadi.

Farzandlikka olishni bekor qilishda farzandlikka olishdagi butun huquqiy oqibatlarni kelajak vaqt uchun tugallatadi. Agar bu bolalar manfaatiga mos kelsa bir vaqtda uning huquqiy aloqilari ota-onalari va boshqa qon-qarindoshlari bilan ham tiklanadi.

Farzandlikka olishni bekor qilish faqat sud tartibida amalga oshiriladi. Farzandlikka olishni bekor qilishni mezoni bo'lib shu bekor qilishlik bolalar manfaatiga qaratilishi bilan belgilanadi.

---

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharxlar. -T., "Adolat", 2000, 316 b.

Umumiy qoida bo'yicha farzandlikka olishni bekor qilish bola to'la muomala layoqatiga to'lishiga qadar sodir bo'ladi. Bu esa ularni muomala layoqatiga to'lishi bilan ota-onalarni huquq va majburiyatlarining tugallanishi bilan bog'liq bo'lib farzandlikka olishni bekor qilish uchun ham zaruriyat qolmaydi.

Farzandlikka olishni bekor qilish farzandlikka olinganni farzandlikka oliuvchilarni va farzandlikka olinganlarni ota-onalarini roziligi mavjud bo'lganida yo'l qo'yilishi mumkin.

Agar farzandlikka olinuvchini ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsalar ularni roziligini olmasdan farzandlikka olishlik bekor qilinadi.

Agar farzandlikka olish farzandlikka olinuvchilarni ota-onalarini roziligesiz yoki majburlash yo'li bilan olingen bo'lsa bolalarni ota-onalari farzandlikka olishni bekor qilishlikni talab etishlari mumkin.

Odatda ko'pincha farzandlikka notinch bo'lgan oilalardan bolalar beriladi. Ko'pincha farzandlikka olish bekor qilinganda bola vaqtincha vasiylik va homiylik organlariga topshiriladi.

Farzandlikka olish bekor qilinganda sud farzandlikka olgandan bola manfaati uchun aliment undiriladi. Bu masalani hal qilishda sud birinchi navbatda bola manfaatlarini hisobga oladi. Agar bolani holati aliment olishlikni talab etsa u holda farzandlikka oluvchidan aliment undiriladi. Aliment undirishlik o'zining huquqiy tabiat bo'yicha javobgarlik chorasi bo'lmasdan balki uning birdan bir maqsada bolaning ta'minotidir. Agar bola manfaati aliment undirishlikni talab etsa u holda farzandlikka oliuvchidan aliment undiriladi.

Agar bola o'zining ota-onasiga qaytarilsa, agar bola ishlasa yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib o'zini o'zi ta'minlasa u holda aliment undirilmaydi.

Farzandlikka olish bekor qilinganda bola farzandlikka olinganda unga berilgan yangi ism, familiya va ota ismini o'zgartirgan oy-kunlar va bolani tug'ilgan joyi. Agar bolani manfaati talab etsa u holda sud bolani ismi, familiyasi va ota ismini saqlab qolish huquqiga ega. Bu holat bolani tug'ilgan joyi va oy kuniga ham tegishlidir. Bolani familiyasi va ota ismini saqlab qolish to'g'risidagi

farzandlikka oluvchini fikri ahamiyatga ega emas. 10 yoshga to’lgan bolani ismi, familiyasi va ota ismini o’zgartirish uni roziligesiz mumkin emas. Bu masala bo’yicha qonunda to’g’ri ko’rsatilgan bo’lmasa ham bu holat uni to’g’ilish joyiga ham tegishlidir.

Oila kodeksini 170-moddasiga ko’ra farzandlikka olishni bekor qilishni talab qilishni talab etish huquqiga ega bo’lganlar doirasiga farzandlikka olinganning ota-onasi, prokuror, vasiylik va homiylik organlari, voyaga yyetmaganlar ishi bilan shug’ullanuvchi komissiyalar, shuningdek o’n olti yoshga to’lgan farzandlikka olingen bola kiradi.

Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va farzandlikka olishni bekor qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Sud tomonidan farzandlikka olish haqiqiy emas deb topilganda yoki farzandlikka olish bekor qilinganda farzandlikka olish bekor qilinganda farzandlikka olinuvchi bola bilan farzandlikka oluvchilarining (farzandlikka oluvchilarining qarindoshlari) o’zaro huquq va majburiyatlari tugatiladi hamda bola bilan uning ota-onasi (ota-onaning qarindoshlari) o’rtasidagi huquq va majburiyatlar tiklanadi.

## **2.2. Voyaga yyetmagan bolalar uchun vasiy va homiy tayinlash.**

Hayotda bahtsiz tasodif va har hil sabablar tufayli ota-onan tarbiyasidan va uni ta’midotidan mahrum bo’lgan voyaga yyetmagan bolalarni oilaviy tarbiyaga yaqin bo’lgan tarbiyani ta’minlaydigan vositalardan biri vasiylik va homiylikdir.

Vasiylik va homiylikning asosiy maqsadi ota-onan qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni oilaga joylashtirish shakllaridan biridir.

Vasiylik va homiylik masalalari fuqarolik va oila qonunlarining tegishli moddalari bilan tartibga solinadi. Vasiylik va homiylik masalalariga Oila kodeksida va me’yoriy hujjat ”Nizom”da keng o’rin berilgan.

Oila kodeksini 175-moddasiga binoan vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish o’n sakkiz yoshga to’lmagan shahslarga nisbatan - halq ta’limi

bo'limlariga, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shahslar nisbatan - sog'liqni saqlash bo'limlariga, sog'ligining yomonligi sababli homiy tayinlanishiga muhtoj muomalaga layoqatli shahslarga nisbatan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limlariga yuklatiladi.

Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom"ning 4-bandiga ko'ra, vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish mahalliy hokimiyat organlarining qaysi bo'limlari tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Qonun bu masalani hal qilishda vasiy yoki homiy tayinlashning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi.

Vasiylik va homiylik Oila kodeksining HHI bobi, 179-199-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom" bilan huquqiy tartibga solinadi.

Oila kodeksini 173-moddasiga binoan vasiylik va hmoiylik ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek bunday bolalarning shahsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi.

Vasiylik 14 yoshga to'lмаган bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shahslarga nisbatan quyidagi hollarda belgilanadi:

Ота-онаси вafot etgan bo'lsa;

Ота-онаси sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda;

Ота-онаси kasal bo'lganda;

Ота-онаси sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

Ота-онаси 6 oydan ortiq muddat bo'lмаган hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo'lsa;

Ота-онаси bedarak yo'qolganda;

Ota-onasi bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan ota-onalar tarbiya, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'hshash muassasalardan bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek boshqa zarur hollarda.

Amaldagi qonunlarga muvofiq vasiylik va homiylik vasiy va homiy tayinlashga muhtoj bo'lgan shahs yashayotgan joyda belgilanadi. YAshash joyi deyilganda voyaga yetgan shahsning doimiy ro'yhatdan o'tgan turar joyi tushuniladi. Voyaga yyetmaganlarning yashash joyi ularning ota-onalari yashaydigan joy hisoblanadi.

Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi.

Hokimning vasiy yoki homiy tayinlash to'g'risidagi qarori O'zbekiston Respublikasining butun hududida haqiqiy hisoblanib, barcha yuridik hamda jismoniy shahslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Amaldagi Oila kodeksini 176-moddasida vasiylik va homiylik belgilanadigan shahslar ko'rsatilgan. Ilgari amalda bo'lgan Nikoh va oila kodeksining 169-moddasida vasiylik o'n besh yoshga to'limgan bolalarga nisbatan belgilanishi nazarda tutilgan bo'lsa, yangi Oila kodeksiga ko'ra o'n to'rt yoshga to'limgan voyaga yyetmaganlarga nisbatan belgilanadi.

Vasiy o'zining vasiyligida shahsning nafaqat mulkiy, balki shahsiy nomulkiy huquq va manfaatlarini ham himoya qiladi.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yyetmaganlarga nisbatan homiy tayinlanadi.

Fuqarolik kodeksini 32-moddasiga binoan vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to'liq layoqati bo'limgan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Voyaga yyetmaganlarga vasiylik va homiylik ularni tarbiyalash maqsadida ham belgilanadi. Vasiylar va homiylarning bunga tegishli huquq va burchlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Vasiylar va homiylar o'z himoyalaridagi shahsning huquq va manfaatlarini har qanday shahslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudlarda ham mahsus vakolatsiz himoya qiladilar.

Voyaga yyetmagan bolalarga vasiy va hmoiy belgilanganda uning oldiga qo'yilgan maqsad ularga oilaviy tarbiyani ta'minlash, ular bolalar bilan bir oilada yashashlari lozim.

Vasiylik yoki homiylikdagi shahslarning mol-mulkini boshqarish vasiylik va homiylik organlarining tavsiyasiga asosan mol-mulk joylashgan hududda o'rnatiladi.

Vasiylik va homiylikdagi shahslarning mol-mulkini boshqarish, ularga tegishli mol-mulkni boshqalarga o'tkazish, vasiylik va homiylikdagi shahslarga tegishli pul va boshqa qimmatli bo'yumlarni saqlash, mol-mulkni boshqarish va saqlash bilan bog'liq bo'lган boshqa harakatlarni bajarish tartibi va shartlari, shuningdek vasiylik va homiylikdagi shahslarning mol-mulkini boshqarish va saqlash bo'yicha vasiy va homiylarning hisobot berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Vasiy va homiy o'z vasiyligi yoki homiyligidagi shahsga ta'minot berishga majbur emas.

Vasiylik va homiylik ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni ta'minlash, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek, ularning shahsiy va mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoyalash maqsadida belgilanadi.

Vasiy 14 yoshga to'lмаган bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shahslarga, homiylik esa 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lган voyaga yyetmaganlarga va sud tomonidan muomala layoqati cheklangan shahslarga nisbatan quyidagi hollarda belgilanadi:

Ota-onasi vafot etgan bo'lsa;

Ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda;

Ota-onasi kasal bo'lganda;

Ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

Ota-onasi 6 oyodan ortiq muddat bo'lмаган hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo'lsa;

Ota-onasi bedarak yo'qolganda;

Ota-onasi bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan, ota-onsa tarbiya, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o'hshash muassasalardan bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek boshqa zarur hollarda.

Oila kodeksini 181-moddasiga binoan vasiylar o'z qaramog'idagi shahslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar va ular nomidan hamda ularning manfaatlarini ko'zlab barcha zarur bitimlarni tuzadilar.

Homiylar o'z qaramog'idagi shahslarga ular o'z huquqlarini amalga oshirishida va majburiyatlarini bajarishida ko'maklashadilar, shuningdek ularning huquqlari uchinchi shahslar tomonidan suiiste'mol etilishidan himoya qiladilar.

Vasiylar va homiylar vasiylik va homiylikdagi shahslarning huquq va manfaatlarini barcha muassasalarda, shu jumladan, sudda ham alohida ishonchnomasiz himoya qiladi.

**Vasiy va homiy:**

Turar joyi o'zgarganligi to'g'risida vasiylik va homiylik organini habardor qilishi;

Vasiyligi va homiyligidagi bolalarni tarbiyalashi, ularning ta'minoti, salomatligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va ahloqiy kamoloti haqida g'amho'rlik qilishi, shuningdek ularning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

O'z qaramog'idagi voyaga yyetmagan bolalar bilan barcha yashashi shart. 16 yoshga to'lgan homiylikdagi bolaning o'z homiysidan alohida yashashiga basharti bu uning tarbiyasiga hamda huquq va manfaatlarining himoya qilinishiga salbiy ta'sir qilmasa, vasiylik va homiylik organining ruhsati bilan yo'l qo'yiladi.

Vasiy va homiy quyidagi vazifalarni bajarish huquqiga ega: vasiyligi va homiyligidagi bolaning fikri, shuningdek, vasiylik va homiylik organining tavsiyalarini hisobga olgan holda bolani tarbiyalash usullarini mustaqil ravishda belgilashga;

Vasiyligi yoki homiyligidagi bolani qonuniy asoslar bo'lmasdan turib, o'z qaramog'ida saqlab turgan har qanday shahslardan, shu jumladan, bolaning yaqin qarindoshlaridan sud tartibida qaytarib berishni talab qilishga haqlidirlar.

Vasiy va homiy huquqlarining amalga oshirilishi hamda majburiyatlarining bajarilishini vasiylik va homiylik organlari nazorat qiladi.

Vasiy yoki homiy o'z zimmasiga qonun bilan yuklangan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganida vasiylik va homiylik organlari tavsiyasiga ko'ra tuman (shahar) hokimi vasiy yoki homiyni bu majburiyatlarni bajarishdan chetlatadi.

Vasiy yoki homiy majburiyatlarni sifatli bajarmaganida bu majburiyatlarni bajarishdan chetlanish masalasi sudga tegishli bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki sud nizoli masalaniadolatli hal qilib o'z faoliyatida faqat qonunga asoslanib hal qiladi.

Vasiylik quyidagi hollarda tugaydi:

Vasiylikdagi shahs yoki va vasiy vafot etganda;

Voyaga yyetmaganlarga nisbatan - ular 14 yoshga to'lganda yoki ular ota-onasi tarbiyasiga qaytarilganda;

Qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganlar uchun - ularning muomala layoqati sud tomonidan tiklangan hollarda.

Homiylilik quyidagi hollarda tugaydi:

Homiylilikdagi shahs yo homiy vafot etganda;

Homiylilikdagi shahs voyaga yetganda;

Homiylilikdagi shahs ota-onasiga qaytarilganda;

Homiylilikdagi shahs nikohga kirganda;

Voyaga yyetmagan shahs to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinganda (emansipatsiya);

Fuqaroning muomala layoqatini cheklash haqidagi sudning hal qiluv qarori bekor qilinganda;

Homiylilikdagi voyaga yetgan shahsning sog'lig'i yahshilanganligi tufayli u mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish mumkin bo'lganda.

### **2.3. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) tushunchasi va tartibi.**

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat), Oila kodeksini 22-bobi, 194-200-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 19-apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risidagi Nizomi"ni ikkinchi bo'limi bilan huquqiy tartibga solinadi.

Oila kodeksini 194-moddasiga binoan ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish ihtiyyoriy bo'lib, u vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shahslar o'rtasida tuzilgan mahsus shartnomada asosida amalga oshiriladi.

O'n yoshga to'lgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin.

Bolani oilaga tarbiyaga berish shartnomasi vasiylik va homiylik organi va tutingan ota va ona bilan tuziladi.

Bolaning oilaga tarbiyaga olish ularga oilada oilaviy tarbiyani olish uchun imkoniyat berib, qonun unga so'zsiz afzallik beradi.

Vasiylik va homiylik organi bolalarni tarbiyaga olishni istovchilarining oilaviy sharoiti, moddiy ta'minoti ahvolini o'rGANIB chiqadi va ularni hisobga oladi.

Oilaga bolani tarbiyaga olish shartnomada asosida amalga oshiriladi. SHartnomada esa vasiylik va homiylik organlari va bolani oilaga olmoqchi bo'lgan tutingan ota-onalar (er-hotinlar, alohida fuqarolar bo'lishi mumkin).

Oilaga bolalarni tarbiyaga olish uchun shartnomada ko'rsatilgan voyaga yyetmagan bolalar bo'lishligi lozim. Vasiy (homiy)lar tutingan ota-onalardan farq qilib vasiylik va homiylik organlari bilan shartnomada munosabatlarida bo'ladilar.

Oilaga bolalarni tarbiyaga olish odatiy bolalar uyidan farq qilib unda bolalarning kam sonligi bilan farq qiladi. Bu esa unda jamoat tarbiyasidan farq qilib oilaviy tarbiyani ta'minlaydi. Bu esa ota-onalar uchun bolalar bilan bevosita munosabatda bo'lishligi uchun imkon yaratadi. Qonun bilan bolalarni oilada eng kam soni ko'rsatilmagan. SHuning uchun uni soni bir boladan iborat bo'lishi mumkin. Qoida bo'yicha bolalarni soni 8 boladan oshmasligi kerak.

Oilaga bolani tarbiyalash uchun olish vasiylikdan farq qilib, tutingan ota-onalar vasiylik va homiylik organlari bilan shartnoma munosabatlarida bo'lib o'zlarini majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun haq oladilar. Bolalar va tutingan onalar o'rtasida vasiylikka olinganlar va vasiy va homiylargacha nisbatan yaqinroq munosabatlarda bo'ladilar.

Oila kodeksini 195-moddasiga binoan bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-ona o'rtasida tuziladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvda bolalarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlari, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlari, shuningdek bunday kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlari ko'rsatiladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olayotgan tutingan ota-onalar albatta voyaga yetgan va muomalaga layoqatli bo'lishlari kerak. Oilaga bola olayotgan ota-onalarga ota-onalik huquqi ularni nikohda bo'lган shuningdek yolg'iz fuqarolarga beriladi. Farzandlikka oluvchilarni shahsiyatidan nimani talab etilsa, tutingan ota-onalar shahsiyatidan ham shularni talab etadi. Ota-onalik huquqidan mahrum etilganlar yoki ota-onalik huquqlari cheklanganlar; vasiylik va homiylik majburiyatidan ozod etilganlar; ilgari farzandlikka olib ayblari farzandlikka olishdan chetlatilganlar; sog'liqlari tufayli bolalarga tarbiya beraolmaydiganlar; tutingan ota-onalar bo'laolmaydilar. Tutingan ota-onalar bilan vasiylik va homiylik organlari shartnoma tuzish vaqtida ularni ma'naviy qiyofalari, moddiy-maishiy sharoitlari, yoshi va boshqa sharoitlarini hisobga oladi.

Bolalar yoshlaridan qat’iy nazar shartnomaga tuzish vaqtida ishtirok etmaydilar. Tutingan oilalarga ota-onalik homiyligidan mahrum etilgan bolalar qabul qilinadi. Agar aka-ukalar, opa-singillar bir oilada tarbiyalangan bo’lsalar ularni ajratish maqsadga muvofiq emas. Faqat bolalarni manfaati talab etsa shundagina unga yo’l qo’yilishi mumkin. Ko’pincha bunday aka-uka, opa-singillarni ajratishlik ularni biri kasal bo’lib bola qabul qilib olayotgan oilaga havf tug’dirsa.

SHartnomada ko’rsatiladigan majburiyatlardan biri vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-onalar o’rtasidagi bolani oilaga olish muddati, tarbiyalash, ta’lim berish va ularni moddiy ta’minalash shuningdek, vasiylik va homiylik organini bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) oldidagi majburiyati.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularni bir yo’li kiyim-bosh va poyabzal bilan ta’minalaydilar.

Vasiylik va homiylik organlari bolani oilaga tarbiyaga olgan tutingan ota-onaga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda har oyda nafaqa to’lab turadi.

Kelishuv muddatidan oldin quyidagi sabablar bo’lganda tutingan ota-onaning tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin:

Kasalligi;

Oilaviy yoki mulkiy mavqeining o’zgarishi;

Bolalar bilan o’zaro bir-birini tushunmaslik va boshqalar.

Vasiylik va homiylik organining tashabbusi bilan yoki bolalar ota-onalarga qaytarilgan yohud ular farzandlikka olinganda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

Oila kodeksini 197-moddasiga muvofiq oilaga tarbiyaga olingen bolalar quyidagi huquqlarga ega:

O’zlariga tegishli bo’lgan aliment shuningdek, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to’lovlarni olish;

Uy-joyga bo’lgan mulk huquqi yoki uy joylardan foydalanish;

Qolgan hujjatlariga muvofiq uy-joy olish huquqlarini saqlab qoladilar.

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, ota-onasi va qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ham egadirlar.

Bolaning manfaatiga dahldor har qanday masala oilada hal qilinayotganida bola o'z fikrini bildirishga haqli.

Ushbu moddada oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar (patronat\_ ro'yhati berilgan. Bular birinchi navbatda ota-onas homiyligidagi butunlay mahrum bo'lган yoki muddati belgilanmagan uzoq muddatli bolalardir.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olgan ota-onalar o'rtasidagi nizolar vasiylik va homiylik organlari, zarur holatlarda esa sud tomonidan ko'rildi.

Oila kodeksini 200-moddasiga binoan vasiylik va homiylik organlari oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib boradilar.

Oila kodeksini 198-moddasiga binoan, voyaga yetgan har ikki jinsdagi shahslar tutingan ota-onas bo'lishlari mumkin.

Quyidagi shahslar tutingan ota-onas bo'laolmaydilar:

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shahslar;

Sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan shahslar;

Qonun bilan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi uchun vasiylik yoki homiylik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shahslar;

Farzandlikka bola olgan lekin keyinchalik o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlagan yoki ularni lozim darajada bajarmaganligi uchun sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilingan shahslar;

Qasddan qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilingan shahslar;

Sog'lining holatiga ko'ra bolani tarbiyalash majburiyatini bajara olmaydigan shahslar.

Amaldagi oila qonunchiligiga muvofiq, tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tutingan ota-onasiga tarbiyaga olingan bolaga nisbatan vasiylik huquq va majburiyatlariga egadir.

Ushbu moddada tutingan ota-onasiga tarbiyaga olingan bolaning qonuniy vakili hisoblanishi, unga nisbatan vasiylik huquq va majburiyatlariga egadir. Tutingan ota-onasiga tarbiyaga olingan bolaning huquq va majburiyatlarini har qanday jismoniy va yuridik shahslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz himoya qiladi<sup>22</sup>.

---

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasining Oilashuv kodexsiga sharhlar, -T., "Adolat", 2000, -365b.

## Xulosa

Mamlakatimizda inson huquqlarini har tomonlama himoya qilish, ijtimoiy himoyani amalga oshirish, oilani mustahkamlash, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning rivojlanishi jarayonida farzandlikka olishni huquqiy tartibga solish muammolarini o’rganish, tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bugungi kunda bolalarini qarovsiz qoldirib, boshqa davlatlarga noqonuniy ishga ketib qolayotgan ota-onalarning bolalariga ham e’tibor qaratish masalasi dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu sababli bunda jamoatchlik nazoratini yanada kuchaytirish, bu borada qonunchilikka ma’lum normalarni kiritish hamda mahalla va ta’lim muassasalarining ma’suliyatlarini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.
2. Milliy mintalitetimizga xos bo’lmagan o’z bolasidan voz kechish, farzandlarini tashlab ketayotgan shaxslarga nisbatan qat’iy javobgarlikni belgilash, ularga nisbatan moddiy javobgarlikni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq.
3. Vasiy va homiylarni rag’batlantirish choralarini va usullarini ishlab chiqish lozim.
4. Turli g’arazli, tadbirkorlik, bolalar mehnatidan tekin foydalanish kabi maqsadlarda farzandlikka olish, bolani oilaga tarbiyaga olish kabi holatlarga nisbatan qat’iy javobgarlik belgilash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish coralarini belgilash lozim deb hisoblaymiz.
5. Oila kodeksining 161-1-modda tariqasida “bolaning farzandlikka olinishida ota-onaning o’rnini bosuvchi shaxslarning, ya’ni vasiylar (homiylar), tutingan ota-onalar, shuningdek, ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalar tarbiyalanayotgan muassasa rahbarlarining roziligi olinishi, agarda bolaning tug’ishgan ota-onasi roziligi talab etilmaydigan bo’lsa shart”, degan norma kiritilishi maqsadga muvofiqliqdir.

Ushbu moddaga 2-qism sifatida quyidagi normani: “bolaning farzandlikka olinishida ota-onaning o’rnini bosuvchi shaxslarning, ya’ni vasiylar (homiylar), tutingan ota-onalar, shuningdek, ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalar

tarbiyalanayotgan muassasa rahbarlarining rozilik berishmasa, ushbu holat yuzasidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Sud bolaning manfaatlarini ko'zlab ushbu shaxslarning roziligesiz ham farzandlikka olish haqida qaror qabul qilishi mumkin”, degan norma kiritilishi lozim.

6. Oila kodeksining 157-moddasida er (xotin)ning bolani farzandlikka olishga roziligi talabi ko'rsatilgan. OK 152-moddasida qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga laeqatsiz yoki muomala laeqati cheklangan deb topilganlar farzandlikka oluvchilar bo'la olmasligi ko'rsatib o'tilgan. Lekin, er yoki xotindan birining muomalaga layoqatsiz bo'lishi holati nazardan chetda qolgan. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ushbu moddaga ko'shimcha tariqasida “Er yoki xotindan biri qonun yo'li bilan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa yoki muomala layoqati cheklangan bo'lsa, farzandlikka olishga yo'l qo'yilmaydi”, degan norma kiritilishi kerak.

7. Bolaning tug'ilish sanasini o'zgartirish borasida bola tug'ilganidan so'ng bir yil oralig'ida ushbu sanani o'zgartirish maqsadga muvofiq emas, chunki uch yoki to'rt oylik go'dakning fiziologik va ruhiy rivojlanish ko'rsatkichlari endi tug'ilgan go'daknikidan jiddiy farq qiladi va tibbiy nuqtai nazardan ham har bir oyda o'zgarib borib jiddiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bolaning tug'ilish sanasiga o'zgartirish kiritish bir yoshdan oshgandan so'ng tatbiq etilishi maqsadga muvofiq bo'lur edi.

8. Bolaning farzandlikka olinishi huquqi u tug'ilganda vujudga keladi va uning voyaga etgunicha davom etadi. Ayrim holatlarda bolaning sog'lig'i nuqtai nazaridan farzandlikka olish mumkin bo'lmaydi. Biroq, farzandlikka oluvchi ushbu ogohlantirishlarga qaramasdan farzandlikka olishga qat'iyat bildirsa, bola manfaatlarini yuzasidan bunga rozilik bermaslik maqsadga muvofiq emas albatta. Qoidaga asosan, odatda farzandlikka sog'lom bolalar beriladi. Chunki, kasalmand bolani tarbiyalash farzandlikka oluvchidan alohida matonat, sabr-toqat va bardoshni talab etadi. Farzandlikka olish vujudga kelganidan so'ng esa, bolaning sog'lig'i yomonligi sababli undan voz kechish mumkin emas.

9. Ota-onalik huquqidan mahrum etishdan farqli ravishda farzandlikka oluvchining aybi bo'lmanan holatlarda ham farzandlikka olishni bekor qilish mumkin. Bu erda birinchi navbatda psixologik faktorlar muhim rol o'ynaydi. Demak, psixologik ekspertiza o'tkazish maqsadga muvofiq va zaruriyat bo'lib hisoblanadi. Oila kodeksining 169-moddasiga qo'shimcha tarzida "Farzandlikka olish farzandlikka olingan bola va farzandlikka oluvchi o'rtasida uning aybidan qat'iy nazar ota-onan va bolalar o'rtasida munosabatning bo'lmasligi va farzandlikka olishni saqlash qolish maqsadga muvofiq bo'lmananda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin», degan norma kiritilishi lozim. Ushbu normaning kiritilishi farzandlikka olishni bekor qilish asoslarini mantiqiy takomilga etkazgan bo'lur edi.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3-bet.
I bob. Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish.....	8-bet.
1.1. Oila mustahkamligini ta'minlashning ijtimoiy va ma'naviy omillari.....	8-bet.
1.2. Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish.....	21-bet.
1.3. Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash, hisobga olish va joylashtirish.....	23-bet.
II bob. Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari.....	27-bet.
2.1. Farzandlikka olish tushunchasi, shartlari va tartibi.....	27-bet.
2.2. Voyaga yyetmagan bolalar uchun vasiy va homiy tayinlash.....	40-bet.
2.3. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) tushunchasi va tartibi..	46-bet.
Xulosa.....	51-bet.
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	55-bet.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

### **Rahbariy adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
3. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996. – 366 b.
4. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – T.: O'zbekiston, 1996. – 349 b.
5. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishslash davr talabi. T.5. – T.: O'zbekiston, 1997. – 382 b.
6. Karimov I. A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. T.6. – T.: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
7. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999. – 410 b.
8. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000. – 528 b.
9. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – T.: O'zbekiston, 2001. – 432 b.
10. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002. – 430 b.
11. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 320 b.
12. Karimov I. A. Tinchlik va havfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 400 b.
13. Karimov I. A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. – 448 b.

14. Karimov I. A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. – T.: O‘zbekiston, 2007. – 320 b.

15. Karimov I. A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. T.16. – T.: O‘zbekiston, 2008. – 368 b.

16. Karimov I. A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minalash – bizning oliy maqsadimiz. T.17. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 280 b.

17. Karimov I. A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko‘tarilish sari. T.18. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 280 b.

18. Karimov I. A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. –T.: O‘zbekiston, 2010. 56 b.

19. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston. 2011. 419 b.

### **Maxsus adabiyotlar:**

1. Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasiga sharhlar. -T.: Adolat, 1999. 167 b.

2. Vosiqova M. Oila va qonun. – T. : Adolat, 1996. - 96 b.

3. Saifnazarova F. O‘zbek oilasi: ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar. – T.: 2007, 126 b.

4. Fuqarolik va oila huquqi. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2008. – 528 b.

5. Xoliqov D. Huquqiy madaniyat – oila mustahkamligi asosi. – T.: Fan, 2007. 130 b.

6. Otaho'jayev F.M. O'zbekiston Respublikasi Oila huquqi. – T.: 2005. 220 b.
7. Otaho'jayev F.M. Yuldasheva Sh.R. Oila huquqi. – T.: 2009. 240 b.
8. Дюжева О. Усыновление по семейному праву Франции. //Тезисы докладов на теоретической конференции аспирантов института государства и права АН СССР и юридического факультета МГУ. –М.: 1983. с.94.
9. Семейное право зарубежных европейских социалистических стран. –М.: 1979. с.361.
10. Кому нужны наши дети?. /Аргументы и факты, 2009г. №19.

#### **Normativ hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2012. – 40b.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – T.: Adolat, 2012. 240 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. – T.: Adolat, 2007. 520 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – T.: Adolat, 2009. 302 b.
5. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill. –T.: Adolat, 1992. 64-b.
6. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga sharhlar. – T.: Adolat, 2000. 446 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarining to'plami. 1991-1998., - T.: Sharq, 1999. 142 b.

#### **Veb-saytlar:**

1. O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. "O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi"ning veb-sayti – [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. O'zbekiston Milliy axborot agentligi(O'zA)ning veb-sayti - [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
4. O'zbekiston xalq demokratik partiyasi dasturi. O'zXDPning veb-sayti – [www.xdp.uz](http://www.xdp.uz).